

ALAYEVA ZARNIGOR MAXMUDOVNA

VOKAL VA ZAMONAVIY MUSIQA

*Respublika oliy o'quv yurtlari bakalavriyatining 60111300 - Musiqa ta'limi
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma*

BUXORO 2023
“BUKHARA HAMD PRINT” NASHRIYOTI

UO'K 784(075.8)

A 45

Alayeva Zarnigor Maxmudovna.

Vokal va zamonaviy musiqa [Matn] : o'quv qo'llanma / Z.M.Alayeva .- Buxoro:
"BUKHARA HAMD PRINT" nashriyoti, 2023.-124 b.

KBK 85.314ya73

Taqrizchilar: *J.Yarashev – Pedagogika fanlarifalsafa doktori (PhD), dotsent.
Buxoro pedagogika instituti Musiqa va tasviriy san'at kafedراسi mudiri.*

*D.Ro'ziyev - BuxDU musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi
professori, pedagogika fanlari nomzodi.*

*Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalari 60111300 -
Musiqa ta'limi yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu
qo'llanmada keltirilgan nazariy ma'lumotlar shuningdek, zamonaviy
estrada ijrochiligida kuylanadigan qo'shiqlardan namunalar keltirilgani
talaba yoshlarni "Vokal va zamonaviy musiqa" fanini o'zlashtirishda
yordam beradi.*

*O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2022-yil 09-sentabrdagi №388-son buyrug'i bilan nashr etishga ruxsat berilgan. O'quv
adabiyotining nashr ruxsatnomasi № 338-187.*

ISBN 978-9943-8786-8-6

KIRISH

Davlatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan musiqiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirilishiga qaratilgan qarorlar hamda farmoyishlar mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasi yuksaltirish yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining yuksak namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va shu asosida musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish, bu borada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar ko'rsatilgan. Musiqa san'ati borasida amalga oshirilayotgan xayrli ishlar bolalarda kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat uyg'otib, ularda cholg'u ijrochiligi, xonandalik kabi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi, shuningdek musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, axloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirib, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi va navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bugun mamlakatimizda ma'nan boy, yetuk, barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Yosh avlod kelajakda O'zbekiston dovrug'ini butun dunyoga tanitishda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Musiqa ijrochilari har tomonlama yetuk va yuqori ijrochilik mahoratiga ega bo'lishida ularning o'zbek musiqa merosini chuqur o'rganishi bilan birga dunyo musiqa san'ati bilan yaqindan tanishishlari, ijro eta olishlarining qanchalik ahamiyatli ekanligini o'zbek musiqa ijrochilari, sozandalari, xonandalarining dunyo musiqasida e'tirof etilayotganligidan bilib olish mumkin. Bunga xalqaro tanlovlarda sozanda - ijrochilarimiz va ko'pgina xonandalarimiz tomonidan qo'lga kiritilayotgan ko'plab yutuqlarni misol bo'ladi. Yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, bilim va ma'rifatga intilish ruhida tarbiyalash asosiy omillarda biri bo'lib, ular musiqa ta'limini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish va shu bilan birgalikda o'quvchilarni estetik tarbiyalashni taqozo qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Buxoro davlat pedagogika institutining Musiqa va tasviriy san'at kafedrasida kadrlar tayyorlash maktabi uslubiy jihatdan kasbiy asosga qo'yilgan. Bugungi kunda kafedra o'qituvchilari tomonidan yangi ilmiy-uslubiy ishlar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar ustida ish olib borilmoqda. Ushbu o'quv qo'llanma mazkur ishlardan biridir.

Ushbu o'quv qo'llanma ikki qismdan iborat. Birinchi qismda yillar davomida shakllanib kelayotgan milliy estrada xonandaligi maktabining tahlili asosida talaba ovozini shakllantirishga doir metodik tavsiyalar, ikkinchi qismda kitobga kiritilgan o'quv asarlarni o'rganishga doir uslubiy tavsiyalar hamda kompozitor va bastakorlar tomonidan yaratilgan mashhur asarlardan tanlab kiritildi.

NAZARIY QISM

Ma'lum bir ovoz turi uchun xonandalik mashqlari ustida ishlash Dastur tanlash

Perofessional o'qituvchi uchun yakka xonandalik mashg'ulotlarining foydasi haqida gapirishning hojati yo'q. Bu nafaqat musiqiy dunyo qarashini kengayishi, balki vokal musiqasining kelajakda ishlashdagi ko'nikmalarga tayyorlashdir. Xonandalar ijrosidagi xatolarni eshitish hamda ularni tuzatish malakalari o'qituvchining tajribasidan kelib chiqadi.

Talabalar bilan ishlashda, ayniqsa, ish jarayonida eng muhim xonandalik mahorati asoslari bilan bosqichma-bosqich egallab borishdir. Bu jarayonda dastur tanlash alohida o'rin tutadi, chunki har bir musiqiy asar ovozning to'g'ri shakllanishiga ko'mak berishi lozim.

Talabalarga asosiy uslubiy masalalarni yechishga ko'maklashuvchi asarlarni berish – kelajakda qo'shiqchining ovozini to'g'ri shakllanishiga erishishga imkon yaratadi. Bu tushunchaga birinchi o'rinda butun diapazonda nafasga tayangan tovush, sof intonatsiya, aniq talaffuz va to'g'ri artikulyatsiya, shuningdek, musiqiy obrazlarni emotsional ochib berish kiradi.

Talabani ilk mashg'ulotlarni tinglash jarayonida u bilan suhbat o'tkazish, musiqiy, xonandalik, ovoz imkoniyatlari va kamchiliklarini tekshirib ko'rish kerak. Ovozni avval diapazonning markaziy qismidan boshlab, eng qulay unililarga tayanib rivojlantirish zarur. Ilk qadamlardan oq ovozning turini to'g'ri aniqlab olish zarur. Ovozni bir qator ko'rsatmalarga ko'ra klassifikatsiya qilish kerak. Ularga ovoz sifati, tembri, diapazon, o'tish notalari va prima tonlarning joylashuvi, tessiturani¹ ushlay olish qobiliyati kabi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, ovoz registrlar tuzilmasiga ega, ya'ni diapazonning ayrim qismlarida va bir diapazondan boshqasiga o'tish joylarida o'zgaradi, sinadi va xonanda bu joylardan ayrim noqulayliklarni his qiladi. Bu sinish yoki o'tish notalari to'g'ri o'tkazilgan mashg'ulotlar natijasida sezilmay o'tadi. Turlicha ovozlarning o'tish tovushlari, turli balandlikda joylashgan.

Endi boshlayotgan o'quvchilarning ovoz mashqlari murakkab bo'lmasligi lozim, chunki talabaning e'tibori ovoz hosil qilish texnikasiga qaratilgan bo'lishi kerak. Mashqlarni ijro etishda aniq hujum hamda sof intonatsiya bilan kuylashni talab qilish lozim. Mazkur mashqlar musiqiy fikrlar, musiqiy parcha, kuydan bo'lak kabi jaranglashi kerak. Bu mashqlarni ifodali qilib kuylashni birinchi darsdanoq talab etish zarur. Bu umumiy musiqiy hisni rivojlantiradi, o'quvchining qobiliyatini o'tkirlashtiradi va xonandalikning elementar ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'qituvchi talabani tinglab ko'rgach, uning tovush hosil qilishdagi kamchiliklari haqida aniq tasavvur hosil qilish va ularni bartaraf qilishga

¹ **Tessitura** (ital. tessitura – to'qima)

ko'maklashadigan mashqlar tanlashi kerak. Barcha o'quvchilar uchun asqotadigan mashqlar va vokal harakatlar mavjud, biroq, hamma mashqlarni talabning individual ovoz xususiyatlariga asoslanib tanlash lozim. O'qish jarayonida gammalar, intervallar, arpedjio, passajlar, bezaklar, shuningdek, kuylash turlarining barcha xili: kantilena, filirovka, harakat texnikasi va boshqalarni o'zlashtirish zarur. Mashqlarni murakkabligi asta-sekin kuchaytiriladigan tartibda berish kerak.

Agar har kuni to'g'ri tovush haqida kuylab ko'rsatib turilmasa, turli vokal qiyinchiliklarni bartaraf qilish ustida ishlanmasa, o'quvchi ifodali kuylasa ham vokal texnik tarafdin noto'g'ri kuylashi mumkin, bu esa asta-sekin ovozning degradatsiyasiga olib keladi. Pedagogik materialini to'g'ri tanlash – tarbiyaning yagona vositasi bo'lmasligi lozim, u boshqa usullar bilan hamohang bo'lishi kerak. Faqatgina shu holdagina to'g'ri tanlangan musiqiy-pedagogik uslub o'zining qimmatli foydasini keltirishi mumkin. U yoki bu mashq, vokaliz berar ekan, o'qituvchi mashqdan talab qilinadigan maqsadni tushuntiradi, texnik jihatidan nimalardan foydalanish kerakligini, zarur natijaga erishish uchun nima qilish kerak, qanday harakat, qanday usuldan foydalanish lozimligini aytib o'tadi. Bundan tashqari, u asosan erishmoqchi bo'lgan jarangni ko'rsatib beradi va foydalanish kerak bo'lgan harakatlarni qo'llaydi. Pedagog ham ko'rsatib, ham kuylab ta'lim beradi.

Ovoz ustidagi ishning birinchi bosqichida, xonanda bor diqqatini mushaklari holatining tovush xarakteri bilan bog'lashga jamlashi zarur. Ishning muvafaqqiyati faqatgina talabada muqim mushak hissi ishlab chiqilganda, ya'ni K.S.Stanislavskiyning ta'biriga ko'ra "Murakkablik odatga aylanganida" ayon bo'ladi. Aniq ko'nikmalar paydo bo'lgandagina, ularni musiqa bilan bog'lash kerak, mashhur asarlardan jummalarni qulay tessiturada kuylatish zarur. Darslarni qisman ovoz yo'naltirish texnikasi, kuyning oddiy elementlari (intervallar, gammalar) ustida ishlashga, qisman musiqiy asar ustidagi ishlashga bo'lish lozim. Kichik intervallar, gammalar – boshlash kerak bo'lgan oddiy mashqlardir.

Mashqlar shunday tuzilishi kerakki, egallangan tovush, kuylanayotgan intervalning yuqorigi tovushi bo'lishi lozim. Quyi tovushdan yuqorigi tovushga o'tishda xonanda ovozida yuqorigi tovushning "qisilishi"ni aniq eshitish mumkin, shuning uchun artikulyatsiyani mos ravishda qayta ko'rish, ya'ni esnashni kerakli darajada tashkillashga zarurat tug'iladi.

Intervalli mashqlarni "T" va "A" unililarni birlashtirgan holda, ko'p marotaba o'zgartirib, ijro usulini almashtirib qo'llash mumkin.

Xonanda ovoz ustida ishlash jarayonida faqatgina mexanik jihatidan emas, balki ifodali qilib ijro etishi kerak hamda mashqlar, intervallar, kuy elementlari sifatida his qilish lozim. Mustaqil mashqlar paytida o'qituvchi bilan o'rgangan

mashqlar bilan bir qatorda o‘zi ham qulay intervalni hamda unli tovushlar birikmasini izlab, kuylab ko‘rish maqsadga muvofiq.

Talaba mashqlarni ijro etayotganida kuy qismlarini, musiqiy asarlar jumllarida esa – intervallar harakatini his qilishi kerak. Xonandaga tanish bo‘lgan qo‘shiqlardan parchalarni mashq sifatida berish mumkin. Ularda talaba egallab olingan elementlarni eshita olish va ko‘nikmalarni qo‘llay bilish zarur.

Demak, har bir asarni, har bir kuyni avval o‘ziga xos vokalizga aylantirib, unga tayangan holda tovush hosil qilish usulini mustahkamlab olishi darkor. Kuylashni o‘rganayotganda ovozning kuchi undan erkin foydalanishga to‘sqinlik qilishi mumkinligini unutmaslik kerak. To‘g‘ri jaranglash yo‘llariga mos usullarni tanlab, o‘quvchi o‘z ovozini “o‘stirib” boradi kuch bilan “haydab” chiqarmaydi.

Lampertining maslahatiga ko‘ra ovoz tarbiyasining ilk bosqichlarida talaba “Ko‘proq ovoz bilan emas, aql bilan ta’lim olishi kerak, chunki ovozni charchatib qo‘ygach, hech qanday vositalar bilan yaxshi holatga qaytarolmaydi”².

Ijrochilik ko‘nikmalari uchun vokalizlarni kuylash, tovush hujumi, diafragmaning faolligi, to‘g‘ri qo‘shiqchilik tovushi, qo‘shiqchilik nafasini mustahkamlash

Vokalizlar mashqlardan badiiy asarlarga o‘tish bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Ular adabiy matnga ega asarlarga nisbatan ovoz hosil qilish texnologiyasi bilan bog‘liq, shuning uchun ta’limning ilk bosqichlarida aynan vokalizlarni afzal ko‘rishadi.

Ular mashqlar, kuychalar singari talaba uchun muhim bo‘lgan qo‘shiqchilik ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi. Ijodkorlarning barcha ko‘rsatmalariga amal qilib, musiqiy jumlani o‘zlashtirish, asosiy dinamik bo‘yoqlar, musiqiy mazmuni ochib berishga harakat qilishi zarur.

Avvaliga vokalizlarni notalar nomini aytib kuylanadi, keyin esa unli tovushlarga o‘tiladi, bu ijrochilik imkoniyatlarini oshiradi. Bu ma’lum bir texnik masalaga yo‘naltirilgan asarlardir. Matnining yo‘qligi uni odatiy badiiy vokal asarlar – romanslar, qo‘shiq va ariyalardan farqlanib turadi. Shunday qilib, vokaliz she’riy matn bilan murakkablashmagan asl musiqiy vokal asar sifatida namoyon bo‘ladi. So‘zlarining yo‘qligi va vokalizda aks etgan texnik element uni ovoz tarbiyasidagi muhim material bo‘lib xizmat qiladi. Vokaliz talaba mashqlarda egallagan tovush hosil qilish, ovoz yo‘naltirish ko‘nikmalarini qo‘llash va mukammallashtirishga imkon beradi. Xonanda vokaliz kuylash jarayonida xuddi cholg‘u qo‘shiqchiligi sharoitiga tushib qolgandek bo‘ladi, shuning uchun musiqiy badiiy vositalarini qo‘llashga majbur bo‘ladi. Talaba oldida sof vokal vositalarni ifodali ijro etish masalasi turadi, bu uning musiqiy hissasini o‘tkirlashtirishga va jumlaning

² Nazarenko I. K. “Kuylash san’ati”

musiqiylikni diqqat bilan kuzatishga undaydi, musiqiy shaklni fahmlashga o'rgatadi. Bu yerda musiqiy badiiylikni "nutqiy"lik bilan almashtirish badiiy so'z ortiga berkinish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Shuning uchun musiqiy matnga nisbatan e'tiborliroq bo'lishga, ijodkorning barcha eslatmalarga diqqat qilishga o'rgatadi bu kelajakda matnli badiiy asarlarni kuylash uchun foydalidir.

Talabaga vokaliz tanlashda o'qituvchi undagi qiyinchiliklar nuqtayi nazardan tahlil qilishi lozim. Dastavval vokalizning musiqiy jihatlariga e'tibor qaratish kerak: sur'ati, ritmik murakkabliklari, kuy yo'nalishini kuzatish, qiyinchiliklarni aniqlagach, garmonik jo'rnovozlikni tahlil qilish zarur. Vokal-texnik qiyinchiliklar jihatidan, avvalo, u yozilgan diapazon, tessitura bilan tanishish, u mo'ljallagan vokal-texnik usullarni ajratib olish muhim. Kuychanlik yo'nalishi tahlilida diqqatni intervallar, nafas uzunligi bu vokaliz kuylanayotgan umumiy sur'atga qaratish lozim. Dinamik talablar, tembr bo'yog'i nyuanslarni belgilash kerak. Bunday vokal-texnik qiyinchiliklarni talabning hozirgi bosqichdagi imkoniyatlaridan kelib chiqib baholash zarur. Ba'zan vokalizlar jamlanmasining xarakteri talabning qanday tayyorgarlik darajasi uchun yozilganligini ko'rsatadi. Bular F.Abt, D.Aspelund, N.Vakkain, M.Garsia, M.Glinka, J.Konkone, G.Zeydler, M.Markezi, M.Mirzoeva, G.Panovka va boshqalar vokalizlari jamlanmalaridir. Ularning hammasi turli ovozlarning murakkablik darajasiga nisbatan yig'ilgan.

Talaba bilan amaliy mashg'ulotlar davomida uning diqqatini mushaklar hissida jamlash kerak, bunday hisslarning rivoji talabaga ovozini dadil ishlata olishga ko'mak beradi. Bu avvalambor aniq hujum va artikulyatsion apparati mushaklarini boshqarishdir. Nafasning vazifasi havoning titrab turuvchi tovush paychalariga yetkazib berish bo'lib, tovush paychalari bilan "kurash" natijasida sarflanadi, shuning uchun o'quvchining e'tiborini shunday "kurash"ning jarayoni hamda natijasiga, ya'ni hujumga qaratish lozim. O'quvchining asosiy e'tiborini hujum hissiga qaratar ekanmiz, qo'shiqchilik nafasini ham rivojlantiramiz.

Tana va boshning holatiga katta ahamiyat bersak, nafas va ovoz hosil qilishga ko'maklashuvchi maxsus nafas turini shakllantirishga kuch sarflamasak ham bo'ladi. Olimlarning so'nggi tadqiqotlariga ko'ra nafas "aralash" bo'lishi kerak.

XVII – XVIII asrlar boshidagi murakkab bo'lmagan asarlar ustida ishlash

Yuqori pozitsiyadagi tovush, tayanch hissi ustida ishlash

Registrlarni tekislash ustida ishlash

Kekirdakning erkin holati

Erkin, chiroyli kuylash tovush paychalarini turlicha qisilishlardan holi bo'lishni talab qiladi. Har bir xonanda erkin kuylashga intiladi, chunki aynan u badiiy ijodga keng yo'l ochadi. "Xonanda har bir apparatini boshqa organlar vazifasiga xalal

bermay ishlashga majbur qila olsa, ovoz ijrodan kuch oladi va kuyning turli qismlarni bir butun va uzluksiz ansamblga birlashtiradi. Agar, aksincha, mexanizmlarning birontasi o‘z funksiyasini yomon bajarsa: ko‘kragi itarsa yoki nafas tashlab yuboraversa, tovush paylari yetarli darajada mustahkam va aniq ishlamasa, ovoz har bir bo‘g‘indan keyin bo‘shashib, uzulib qolaveradi – xonanda mushak ishining parchalanmasligi haqida shunday deydi M.Garsia.

Hiqildoqning holati va barqarorligi nafas hamda artikulyatsion apparatning faoliyatiga bog‘liq. To‘g‘ri va ravon nafas, avvalambor, gavdaning asl holatiga, u nafas mushaklarining faoliyatiga qulaylik yaratadi, bu esa o‘z navbatida hiqildoq holatining barqarorligini saqlab qoladi.

Doktor Levidov o‘zining Italiyada olgan kuylash mashg‘ulotlari haqida: “Italiyada xonandalik o‘qituvchilari maxsus nafas ishlab chiqarishga nisbatan befarq qaraydilar. Ta’limning boshida bir yoki ikkita dars davomida maestri o‘quvchilarga nafasning u yoki bu asoslarini tushuntirib o‘tadilar (bu asosan nafas apparatining anatomo-fiziologik tahlili jarayonida tushuntiriladi) keyinchalik esa o‘quvchilar bilan nafas haqida deyarli suhbatlashmaydilar. Qanday “turdagi” nafasni eng yaxshisi deb hisoblash mumkin degan savolga maestri: “Respirate bene” (“Yaxshi nafas oling”) javobi bilan chegaralanadilar. Milanda ta’lim olgan mashhur xonanda Brojji (Vroggi) nafas haqida quyidagicha fikr yuritardi: “Yaxshilab kuylang, o‘zingizga qulay tarzda nafas oling” deydi.

To‘g‘ri qo‘shiqchilik artikulyatsiyasi bilan biz nafaqat unilarning sof talaffuziga, balki, uning to‘g‘ri xonandalik bo‘yoqlari, boshqacha qilib aytganda “xonandalik ovozi aniq rezonatsiya qilish”ga erishamiz.

Hiqildoqning xonandalik uchun to‘g‘ri holatini topish, halqumni bo‘shashtirish va unli hamda undoshlarni qulay shakllantirish uchun og‘iz va pastki jag‘ning holati katta ahamiyat kasb etadi.

M.Garsia va J.Dyubre kuylash jarayonida artikulyatsiya (shu bilan hiqildoq holati) ahamiyati haqida quyidagicha fikr bildirishgan: “Jag‘larni haddan tashqari ochish hiqildoqni qisib qo‘yadi va bundan kelib chiqib ovoz tebranishini bostirib qo‘yadi, ovoz apparatining rezonatsion gumbazini olib qo‘yadi. Agar tishlar bir-biriga haddan tashqari yaqinlashtirilsa, ovoz tomoqdagi tovush tasavvuriga olib keladi. Agar lablarni haddan ziyod cho‘zilsa og‘ir, vovullashga o‘xshagan tovush kelib chiqadi. Agar og‘iz oval shaklida (baliqdek) ochilsa – u ovozni bo‘g‘ib qo‘yadi, unilarni singitib yuboradi, artikulyatsiyaga xalal berib va nihoyat yuz ifodasini qo‘pol, xunuk qilib qo‘yadi. Og‘izingizni oval “O” shaklida oching, biroq pastki jag‘ni yuqorisidan ajrating, u o‘z og‘irligi natijasida pastga tushishi lozim, lablar nim tabassumda bo‘lsin. Bu harakat lablarni tishlarga yopishtiradi, og‘izni

to‘g‘ri shaklda ochishga ko‘mak beradi, va bu unga yoqimli ko‘rinish baxsh etadi³.”

“T” unlisini talaffuz qilishda bu old qator unlisi. “A”ga o‘tishda til ortga o‘tadi. “A”da og‘iz “T” ga nisbatan ko‘proq ochiladi. Agar “T”da og‘iz “yengil tabassum ko‘rinishida” bo‘lsa, “A”ga o‘tishda ham bu “tabassum” saqlanib qolishi zarur.

Hiqildoqning holatiga yanada kuchliroq ta‘sirni u bilan zich bog‘liq bo‘lgan halqum va esnoq mushaklaridir. Halqum hamda esnoqning to‘g‘ri artikulyatsiyasi hiqildoqning erkin, tabiiy holatini saqlab qolishiga ko‘mak beradi.

Fonatsiya jarayonida hiqildoq nisbatan kichik siljishlarni bosib o‘tishi, unlilar, undoshlar, shuningdek, uni tabiiy tinch holatida chiqarishga urinadigan musiqiy intervallar xilma-xilligiga nisbatan teng ta‘sir etishini doimo ado etishi lozim. Buning uchun esnoqni eslatuvchi mushaklar harakatini qo‘llash foydalidir.

Halqum va tomoq esnoq jarayonida nafaqat kenglikka, balki balandlikka ham cho‘ziladi. Bu bilan esnoq katta intervallarni kuylash jarayonida boshning yuqoriga harakatiga hamohang hiqildoq ko‘tarilishi va sakrashlaridan saqlaydi.

Haddan tashqari chuqur esnoq ovozni bo‘g‘ib qo‘yishi mumkin. Har qanday, hattoki eng “potensial” esnoqning yo‘qligi yapaloq va keskin tovushga olib keladi. Mushaklar ovozning yetarli balandlikka erishish uchun kerak bo‘ladigan esnoq holatini shakllantirish zarur. Ovoz musiqiy shkala bo‘yicha ko‘tarilgani sari esnoq faollashishi kerak. Xonandaning ovoz diapazoni tovushlarning har biriga esnoqning har qanday shakli hamroh bo‘lishi lozim, ayrim hollarda esnoq elementi, ayrim hollarda esa uning potentsiyasi bo‘lishi mumkin.

Esnoq shakllanish jarayonida halqum, tomoq, yumshoq tanglay mushaklari faollashadi, jag‘lar bo‘shashadi, til erkin holga keladi. Asosan esnoq holati doimo tayyor turish kerak, tovushning badiiy “bo‘yoqlari” bilan hamohang ravishda “yiriklashishi”, yoxud “kamayishi”ga doimo tayyor bo‘lishi lozim. Tovushning to‘q tusi chuqurroq, aksincha, yorqin tovush uchun sayozroq esnoq shakli talab qilinadi.

Kuylash jarayonida unlilarni kuylanadigan intervallarni, shuningdek, tovushlar balandligini hisobga olgan holda shakllantirish kerak.

Eshitish qobiliyati u yoki bu interval uchun zarur bo‘lgan esnoq darajasini, hiqildoqni oldin egallab turgan pozitsiyasidan o‘zgartirmagan holda aniqlash kerak. To‘g‘ri artikulyatsiya hiqildoqni vertikal bo‘yicha keskin sakrashlardan saqlab, bir maromda ushlab turishi kerak. Kuylash jarayonidagi halqumning eng to‘g‘ri holatini topishda, mashqlar asoslangan unlilar katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida eslatib o‘tilganidek, “T” va “E” unlilarini talaffuz qilishda hiqildoq baland pozitsiyani egallaydi. “O” va “U” unlilarida esa hiqildoq pastga tushadi. “A” tovushi hiqildoqni haddan tashqari yuqori yoki past holatni egallashga ko‘mak beradi. “O”, “E”, “T” unlilarini talaffuz qilishda topilgan to‘g‘ri qo‘shiqchilik uyg‘unligi ulardan kelib

³ Garsia M. “Kuylash maktabi” 21 bet

chiqqan holda “U” unlisi ham to‘g‘ri jaranglaydi. Shuning uchun “A” unlisi boshqa unlilar birikkan o‘ziga xos “urg‘u” bo‘lib xizmat qiladi.

Agar mashqlar jarayonida har bir unlining sof, to‘liq jarangiga intilsak, matnli asarlarni kuylashda hamma unlilar o‘zining artikulyatsion imkoniyatlarini ko‘rsatish shart emas. Musiqiy kulminatsiya yoxud mantiqiy urg‘uni akslantirgan unli aniqroq jaranglashi lozim. Boshqa unlilar esa bir qancha to‘qlashtirib o‘zgacha qilib aytganda “yeb qo‘yiladi”. Shuning uchun matn bilan qo‘shib kuylashda unli hamma bo‘g‘inlarda ham jaranglayvermaydi. Unlining jarangdorlik darajasi, ko‘tarilishi yosh pasayishi musiqiy jumla chegarasidagi joylashuviga bog‘liq. Musiqiy jumlagam hamohang, unli yanada yorqinroq to‘liqroq jaranglaydi; musiqiy qismning avji bilan to‘g‘ri kelganda yanada jarangdorroq, ijro etilayotgan asar kulminatsiyasiga to‘g‘ri kelganda esa avjiga chiqadi. Unli qanchalik yumshoq, bosqichma-bosqich yorqinlikka erishsa, uning so‘nishi shunchalik komil, jumla ko‘rkamroq, vokal bo‘yoqlar esa mukammal bo‘lib chiqadi.

Kuylashda undoshlar unlilar uchun tayanch vazifasini bajaradi. Agar xonanda bir maromda tekislangan unlilarni kuylay olsa, ya‘ni unlilarning barisi vokal jihatdan bir xil bo‘lsa, undoshlar aniq talaffuz qilinadi, vokal oqimni buzmay, balki uni kuchaytirib, mukammallashtirishga ko‘mak beradi.

Talaba xonandalikdan tashqari undoshlarning talaffuzi ustida ishlashi darkor, so‘zlarning aniqligi ularga bog‘liq. Shuni ta‘kidlash lozimki, ovoz qo‘yilish – bu xonandalikning elementar, “grammatika”si aniqrog‘i, “leksikasi” dir. Shuningdek, tovushning bo‘g‘inlariga, jumla va qismlarga birlashtira olish lozim. Musiqiy bo‘g‘inda qaysi tovush yetakchiligini, mazkur jumlaning tovushlaridan qaysi biri jummalarni birlashtirish, yetakchi tovush, jumla ohangrabosi ekanligini tushunib olish kerak. Kuylash jarayonida talabaning e‘tibori unlilarning o‘zaro qo‘shilishi va oqimiga yo‘naltirilishi kerak. Shuning bilan birga undoshlarning tez va aniq talaffuz qilish kerak bo‘lgan to‘g‘ri tashkillanishi, jipslanishi lozim bo‘ladi. Agar kuylash jarayonida xonanda faqatgina talaffuzi bilan band bo‘lsa uning qo‘pol ko‘rinishida, ya‘ni unlilar zarariga undoshlarni uzib-uzib, tovush oqimining maromini buzadi, kantilenani uzadi, kuylashda har bir bo‘g‘inga urg‘u berib qo‘yadi. “Uzuq-yuluq” diksiya nafaqat vokal jihatidan, balki badiiylik jihatidan ham zararlidir.

Xonandalikning eng yaqin “do‘stlari” sonor: “M”, “N”, “R”, “L” tovushlaridir, ularni talaffuz qilishda tovush paychalari xuddi unlilarni talaffuzi paytidagidek titraydi. Ovozning bir maromdagi ravon go‘zal jaranglashi – kuylashning badiiy asosi bo‘lib hisoblanadi. Qo‘shiqchilik tembrning ravonligi hiqildoq vazifasining bir xildagi ishi bilan erishiladi. “Bir jumladan ikkinchisiga, bir notadan keyingisiga o‘tishda ovozni itarmasdan bo‘shashtirmasdan, xuddi bitta

tekis va uzun tovushni kuylagan kabi kuylash lozim”. “Har bir notada bir xil tembr, shuningdek, tovushning kuchli va sifatini saqlab qolish zarur⁴”.

Yuqori darajada kuylash xonandaning ovoz yoʻlida uchraydigan turfa xil toʻsiqlarga (musiqiy intervallari) qaramay yagona tovush yadrosini saqlay olish mahoratidadir. Oʻquvchining mazkur toʻsiqlarni yenga olishi uning vokal talaffuzining sifati haqidagi savolga javob boʻladi.

Mukammal kantilena deb kuy tovushlarning bogʻlanish uslubiga aytiladi, unga koʻra bu zanjirning har bir jumlasini vokal tovushi bilan toʻyintirilib, oʻzidan oldingi jumladan kelib chiqib kuchayib yoxud, aksincha, susayib, yoki bir maromni ushlab turadi. Yuqoridagi jumla qanday kuch bilan yakunlansa keyingisi xuddi shu kuch bilan boshlanishi lozim. Melodik chiziqning dinamikasi, bir jumladan boshqasiga mantiqiy oʻtishiga bogʻliq.

Tovushni kuchayishi yoki susayishda, tabiiyki, jumlar kuchayadi yoxud soʻnadi. Mukammal kantilena musiqiy hissasidan qatʼi nazar unli tovushning jarangdorligini talab qiladi (U xoh choraktalik, sakkiztalik, oʻn oltitalik boʻlishidan qatʼiy nazar). Unli tovushlar yetarli darajada jaranglashi lozim, ulardan keyingi keladigan undoshlar talaffuzi bilan qisqartirilmasligi kerak. Kantilena kuy harakati davomida unli tovushlar bir-biri bilan bogʻlangan boʻlishi kerak, doimiy ravishda bir-birini toʻldirib turishi lozim. Undoshlar tovushlarni vokal yoʻldan uzib qoʻymasligi zarur, undoshlar talaffuzi uchun minimal vaqt sarflanishi lozim.

Kantilenaga ega boʻlish ijrochilik mahoratining asosi hisoblanadi. Kantilena turli vokal ijrochilik masalalarini yechimiga erishish uchun kerak. Kuchli va chuqur hissiyotlarni ifodalash uning oʻzagidir. Qarama-qarshi ijrochilik manyerasi rehitativ⁵ boʻlib, u xarakter jihatidan soʻzlashishga yaqin turadi. Vokalizatsiyaning koʻplab shakli, vokal texnikasining koʻplab turi mavjud. Xonandaning barcha turdagi ovoz yoʻnaltirilishi va kuylash mahoratiga ega boʻlishi lozim.

Tovush kamchiliklarini bartaraf qilish (burun tovushi, tomoq tovushi, tremolatsiya va boshqalar)

Diapazon oʻrta qismidagi toʻgʻri qoʻshiqchilik tovushi

Tovush paychalarining ishi asosan hiqilldoq, halqum, til, pastki jagʻ, lablar mushaklarini bir vaqtdagi ishini talab qiladi. Talabning malakasi qanchalik kam boʻlsa mazkur hamkorlik kuchliroq namoyon boʻladi. Yuz ifodasi, boʻyin, qad-qomat, baʼzan esa xonandaning qoʻl-oyoqlarini ham qamrab oladi. Mashqlar jarayonida eshitish qobiliyati yordamida xonanda sekin-asta ortiqcha harakatlardan xalos boʻlib, kerakli koʻnikmalar, aniq kordinatsiyaga ega boʻladi. Tomoq qisilgan tarzda kuylangan mashqlar ovoz uchun zararli, chunki ovoz kuchini oshirish hamda

⁴ Garsia M. “Kuylash maktabi” 27, 44 bet

⁵ **Rehitativ** (it. recitare – ovoz chiqarib oʻqish, deklamatsiya qilmoq)

tovush paychalarini mustahkamlash bilan bir qatorda tovush paychalarining mushaklarini qisilishini ham oshiradi. Bizning eshitish qobiliyatimiz ovoz jarangining kuchi jaranglash erkinligiga hamohang bo'lishini talab qiladi.

Agar hiqildoq erkin holatda bo'lsa, tovush paychalari yetarli kuch bilan ishlasa, hech kim na "qisilgan" "tomoq", na "hiqildoq" tovushini eshitmaydi (hiqildoqni bo'shatish uchun o'quvchi yumshoq tanglayni faol holatda ushlab turishi lozim. Bundan bir guruh mushaklar tanglayni ko'taradi boshqa guruhi esa hiqildoqni bo'shatadi). "Hiqildoq" va "Tovush paychalari" tushunchalaridan qo'rqish kerak emas. Bu tushunchalar fonasiya⁶ jarayonidagi ishini to'g'ri anglanganda foydali.

Talaffuz va kuylash jarayonlaridagi noto'g'ri ko'nikmalar vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi tomondan to'g'irlanishi mumkin. Masalan: ovozning tremolyatsiyasi, to'g'ri yapaloq tovush, forsirovka, tomoq tovushi, burun tovushi, bo'g'iq tovush bo'shang tovush, qisqa nafas va boshqalar.

Talaffuz kamchiliklari – talaffuzining umumiy bo'shangligi, so'zlar va jummalarni yakunlamaslik, og'ir so'z tishlar orasidan gapirish, haddan tashqari tez talaffuz va boshqalar.

Hattoki o'zgarmasdek tuyulgan xonandalik tovushi doim ma'lum chegaralarda balandligi, kuchli va tembrni o'zgartirib turadi. Soniyasiga olti yoki yettita pulsatsiya ovoz tembrini boyitadi, harakatchanlik va ifodaviylik baxsh etadi.

Ovoz termolyatsiyasining sabablari turlicha. Masalan hiqildoqning yetarli darajada muqim emasligi nafasni haddan tashqari bosish, eng yuqori notalarni zo'riqtirish, hiqildoqdagi kuchlanish.

Og'izni noto'g'ri ochish, qattiq atakadan noto'g'ri foydalanish va hokazolar ovoz hosil qilishning asosiy sababchilaridan hisoblanadi.

Bu kabi nuqsonlarni to'g'irlashning ko'plab usullari mavjud: ovozni tekislash uchun hiqildoqni kamroq harakat qildirish kerak, ijro paytida til harakatini nazorat qilish, hamda o'rta diapazonda ko'proq mashq bajarish kerak. Shu yo'l bilan ovozni chuqurlashtirmasdan tabiiy jarangdorligini hosil qilish lozim. Yassi tovush muammolaridan xalos bo'lish uchun mashqlarni "A" unlisini yumshoq atakada kuylash tavsiya qilinadi. Trimulatsiyali ovozni to'g'irlash uchun ishni ortiqcha kuchlanish va tabiiy ovoz jarayoniga erishishdan boshlash kerak. Ortiqcha kuchlanishdan xalos bo'lish asta sekin ovozdagi nuqsonlarni bartaraf qilishga olib keladi. Nafasdan to'g'ri foydalanish ham bu kabi muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Gudok shakldagi ovoz – bu kabi ovozlar ortiqcha tebranishli ifodasiz yoqimsiz ovozlar turidir. Nuqsonlarni hal qilish uchun ortiqcha kuchlanishdan hiqildoqni zo'riqtirishdan xalos qilish yo'li bilan erishiladi. Gudok shakildagi

⁶ Fonasiya, tovush hosil qilishi (yunon. phone – tovush so'zidan)

ovozlarni to'g'irlashda tabiiy vibratoga erishish uchun maxsus mashqlar ishlab chiqish kerak. Bu kabi nuqsonlarni hal qilishda tez shakldagi mashqlar ham yordam beradi.

Kuchaytirilgan tovush ("qichqiriq") – bu ovoz apparatining haddan tashqari kuchanish bilan ishlashdir. Fonasiya paytida tovush paychalari haddan ziyod jiplashadi, tembrni amplitudasi kamayadi, bundan kelib chiqqan holda qo'shiqchilik tovushining kuchi ham susayadi. Kuchlanishli kuylash ovozning charchashiga, detonatsiya (asosan tonning pasayishiga), tovush jarangining susayishiga olib keladi, tembrni qashshoqlashtiradi, og'irlashtiradi; ovoz tebranib qoladi, natijada buziladi. Bu kamchilikni bartaraf qilish asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi. Fosirovka qiladigan qo'shiqchini yengil jaranglashga darrov o'tkazish mumkin emas, aks holda ovoz tayanchini yo'qotib, professional jarangini yo'qotib qo'yish mumkin. Ohista, latif yoki, aksincha, tez va texnik jihatdan yengil asarlarni tanlashni maslahat beramiz. Ularni yumshoq, yengil tovush bilan baqirmasdan, o'rta ovozda kuylab lozim. Yengilroq va sayozroq nafas olish kerak.

Tez sur'atdagi qisqa mashqlar, uzun, ohista mashqlarga nisbatan kamroq kuchanishni talab qiladi.

Xirillash va vishillash – tovush paychalarining inertligi va bo'shangligidan, qisman jiplashishdan (ko'p hollarda ma'lum bir ovoz diapazoni uchun past tovushlarda sodir bo'ladi). Asosan bu tovush hosil qilish organining qandaydir kasalligidan kelib chiqadi, shuningdek, mutatsiyaning tugallanmaganligidan darak beradi.

Qattiq hujumni qo'llash, stakkatoga kuylash, mashqlarning oxiriga notasini cho'zish, kuylash pozitsiyasini ko'tarish, "T" unlisiga kuylash kabi nuqsonlar musiqiy quloq va ovozni to'g'ri tarbiyalash, xonanda rejimiga amal qilish nafaqat yakka xonandalik darslari, balki solfedjio darslaridagi muntazam mashg'ulotlar yordamida to'g'irlanadi.

Eng qiyin jarayon kichik sekunda bo'lib, doimiy ish uchun sof, toza intonatsiyasiga yordam beradi.

Agar detonatsiya yaxshi eshitish qobiliyati rivojlanmagan yoki fortepiano jarangiga o'rganmaganlikdan kelib chiqsa, avval, ikki - uchta sodda mashqlarni og'izni yumib ("mm") kuylab, nafasni faqat burundan olish kerak (shunda yumshoq tanglay pastga tushmaydi va o'quvchi ham yaxshiroq eshitadi), yarim tonlar bo'yicha yuqoriga va pastga rivojlantirish, keyin xuddi shu mashqlarni "mm"dan "na" yoki "na"ga bor ovoz bilan kuylash lozim. Qoidaga ko'ra bir necha mashg'ulotdan so'ng talaba tovushlar balandligini anglay boshlaydi, shundan so'ng uni "ming'illash"dan bor ovoz bilan kuylashga o'tkazish mumkin. Noaniq intonatsiyada mashqlarni jo'rnavoqsiz, ayrim holda esa ko'zlarni yumib ijro etish g'oyat foydali.

Detonatsiya (tonni pasaytirish) asosan ko‘krak tovushi, yomon artikulyatsiya, past pozitsiya, noto‘g‘ri nafas, tayanchsiz, bo‘sh kuylash natijasida kelib chiqadi. Bu holatda nafasni faol nafas olish, qattiq hujum, diapazon markazidagi tovushlarda “di-de-do-da” bo‘g‘inlariga sokin mashqlarni bajarish darkor.

Detonatsiya (tonni balandlatish) – tovush paychalarida haddan ziyod kuchantirishdan, bosh jarangini ko‘p ishlatish, yuzaki nafas, shuningdek, e‘tiborsizlik, parishonxotirlik. O‘quvchini ortiqcha nafaslarga chalg‘imay diqqatini jamlashga majbur qiling.

Detonatsiya – eng murakkab va jiddiy nuqsonlar sirasiga kiradi, uni to‘g‘irlash uchun ko‘p vaqt va pedagog hamda talabning kuchi talab qilinadi.

Siniqlik – ko‘p sabablarga ko‘ra shakllanadi, biroq birinchi o‘rinda psixologik xarakterdagi omillar turadi. Kunora ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya, shuningdek, ritmika va raqs bilan shug‘ullaniish yordam beradi.

Kuylash darslarida talabaga harakat qilish yoki yurishni tavsiya qilish mumkin.

Asarlarda diksiya va to‘g‘ri artikulyatsiya ustida ishlash

Nafasni jumlalarga to‘g‘ri taqsimlash

Vokal diksiyasi, xuddi xonandalik san‘ati kabi o‘zida ikki elementni jamlaydi: ijodiy va texnik. Ijodiy element ijro etilayotgan asarning g‘oyasi va mazmunidan kelib chiqqan badiiy vazifaga ko‘ra so‘zning mantiqiy, badiiy taqsimlanishidir.

Diksiyaning texnik elementi unilarning sof, toza kuylanishi, undoshlarning aniq talaffuzidir. Unilarning oqimi oraga qo‘shilayotgan undoshlar natijasida uzilmasligi kerak. Kuylash jarayonida hamma unililar sof, aniq jaranglashi, ularning “vokal yadrosi” almashinishlar natijasida sezilarli o‘zgarishlarga uchramasligi lozim.

Qo‘shiqchilik artikulyatsiyasini to‘g‘ri shakllantirish bir unli boshqasiga o‘tishda hiqildoq muqim holatini o‘zgartirmasligiga imkon yaratadi. Unilarni talaffuz qilishda hiqildoq goh ko‘tariladi (“i” va “s” unilari) goh tushadi (“a”, “o”, “u”). Unilarni talaffuzi yoki hiqildoqning haddan tashqari keskin tebranishlari ovoz jarangining yagonaligiga putur yetkazadi. Unli va undoshlarning artikulyatsiya jarayonidagi o‘zgarish ovozning ravon, bir maromdagi jarangiga ta’sir ko‘rsatmasligi kerak (hiqildoqning turg‘unligi va tovush paychalarining yagona kuchlanishi). Artikulyatsiya qanchalik mahorat bilan tashkillangan bo‘lsa ovoz shunchalik ravonroq jaranglaydi. Ovozning ravon jarangi – hiqildoq xolati va tovush paychalarining doimiy ishidir.

Qo‘shiqchilikning artikulyatsion apparati shu darajada ishlangan bo‘lishi kerakki, uning faoliyati avtomatik tarzga kelsin (xonandadan ongli harakatni talab qilmaydigan). Kuylash jarayonida talabning mushaklari ovoz diapazonining

hamma tovushlarida hiqildoqning to‘g‘ri shaklini darhol olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Mazkur quloq “nazoratidan” o‘tgan avtomatizmga yetkazilish talabaning vokal “maktabi”ni qay darajada egallaganligini ko‘rsatadi.

Kuylashda ham xuddi so‘zlash jarayonidagi kabi tish, til, yumshoq tanglay, halqum, quyi jag‘ va lablarning mushaklari yordamida amalga oshiriladi. Unlilarning undoshlar bilan doimiy kombinatsiyalari til va artikulyatsion apparatning turlicha holatini talab qiladi. Bu organlar doimiy ravishda yumshoq tanglayning o‘zgarishiga tayyor bo‘lishi lozim (u “shamolda shishgan yelkan shaklida bo‘lishi kerak” – F. Lamperti). Pastki jag‘, passiv bo‘lganiga qaramay pastga tushmasligi darkor. U yanoqlar mushaklari va lablar bilan ushlab turilishi kerak. Til erkin, doimiy, unli va undoshlarning shakllanishiga tayyor bo‘lishi kerak. Til mushaklarining erkinligi o‘zining holatini undoshlarning turlicha jaranglash “tabiatiga” xos ravishda tez o‘zgartirishga imkon yaratadi.

Ovoz qo‘yish, ya‘ni uni professional qo‘shiqchilikka moslashtirish va rivojlantirish – eshitish va mushak ko‘nikmalarini bir qavatda o‘zaro bog‘langan tarbiya jarayonidir. Bu yaxshi, to‘g‘ri xonandalik ko‘nikmalarini ishlab chiqishdir.

Xonandalik ovozni hosil qilishda ko‘p sonli mushaklar guruhi, asosan nafas, artikulyatsion, hiqildoq va bir qator boshqa mushaklar ishtirok etadi. Mushaklar ishtirok etadigan mutaxassislikni o‘zlashtirish jarayonida, shu qatorda xonandalikda ham mushaklar ishi ta‘lim natijasida o‘zgaradi, charxlanadi. To‘g‘ri reflekslar shakllanib, keraksizlari tormozlanadi, ortiqcha harakat va keskinliklar yo‘qoladi, muqim vokal malakalari shakllanadi, natijada ovoz erkin, sof va jo‘shqin jaranglaydi.

Ovoz qo‘yish ustida ishlayotgan odam o‘zining mushak hislariga diqqatni kuchaytirish va qaysi guruh mushaklariga ko‘proq e‘tibor qaratishni belgilab olishi zarur. Uni tovushga ko‘mak beruvchi mushaklar, ya‘ni artikulyatsiya va hujumga yo‘naltirish darkor. Ovozning jaranglash aynan ularga bog‘liq bo‘lib, xonanda va pedagogning eshitish qobiliyati tomonidan nazoratga olinishi kerak.

Ovozning hosil bo‘lishi sabablarini aniqlash va nega ovozni qayoqqadir “yo‘naltirish” “jo‘natish”, “yaqinlashtirish”, “o‘chirish”, “qo‘yish”, “o‘tkazish” yoki “tayantirish” mumkin emasligini tasavvur qilish kerak. Ovoz funksiyasini barcha ko‘rinishlari faqat obrazli xarakterlaydi yoki jarang sifatini belgilaydi. Biroq ular ovoz apparatining bu talablarni bajarishi uchun kerak bo‘lgan ishini belgilaydi.

Ovoz nafas oqimiga qarshi turadigan tovush paychalari tebranishi natijasida vujudga keladi. Uni o‘z o‘rnidan “yechish”, “jo‘natish”, “o‘tkazish”, “yaqinlashtirish” yoki yo‘qotish mumkin emas. Ovozning “yaqinligi” yoki “uzoqligi” jarangining tashkillanishi, yaxshi akustik effektga bog‘liq bu xonandaning artikulyatsiyasi yordamida vujudga keladi.

Shunday qilib, til ildizi til osti suyagi hiqildoq bilan bog‘lanib hiqildoqning yuqoriga yoki pastga harakatini ko‘paytirish yoxud to‘xtatish mumkin. Musiqiy intervallarni “bartaraf qilish” (kichik sekundadan boshlab va h.k.) jarayonida. Hiqildoq unlilarning o‘zgarishidan ham o‘zgaradi. Uning holati “i” va “e” unlilarida “a”, “o”, “u” unlilariga nisbatan balandroq bo‘ladi. L.B.Dmitriyevning rentgen yordamidagi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, yaxshi, professional xonandalarning hiqqildog‘i sokin va ohista holatda bo‘ladi va faqatgina sezilmas darajada vertikal bo‘yiga o‘zgaradi. Talaba qanchalik malakasiz bo‘lsa, uning hiqqildog‘i interval va unlilarni bartaraf qilishda ko‘proq siljishlar va turtkilarga uchraydi. Tez, chaqqon va klassik artikulyatsiya (ya‘ni til ildizi, esnoq shakli, hiqildoq va yumshoq tanglayning qayta qurishda) hiqildoqni siljishdan saqlaydi.

Berilgan intervallarga mos chaqqon va yengil artikulyatsiya qilish uchun jag‘, til va lablarning erkinligiga erishish darkor. Karuzo – “qisilgan jag‘ yordamida kuylamoqchi bo‘lgan xonanda yomon xonandadir” der edi. Xuddi shunday qisilgan til bilan kuylash ham noto‘g‘ri. So‘zlarni talaffuz qilishda til doimo erkin, vokal talaffuzi uchun, ya‘ni unli va undoshlarning o‘zgarishiga tayyor bo‘lishi lozim.

Ovoz apparatining ish sharoiti turlicha bo‘lganligi uchun ovoz jarangi ham yaxshiroq yoki yomonroq bo‘lishi mumkin. Xonandalik ovozni shakllanishida ishtirok etadigan ko‘p sonli mushaklarni uch bo‘limga bo‘lish mumkin:

- 1.Tana mushaklari havoni tovush paychalariga yo‘naltiradigan va bir vaqtning o‘zida hiqildoqning to‘g‘ri holatini ta‘minlaydi.

- 2.Hiqildoqning, shuningdek, tomoq mushaklarining faoliyati.

- 3.Hiqildoqda shakllangan tovushni tushunarli so‘zlarga aylantiradigan artikulyatsion apparat mushaklari.

Bu mushak sistemasining bo‘limlari kuylash jarayonida o‘zaro bog‘liqlikda shunday ishlashi kerakki, ularning har biriga yuklangan vazifalar erkin, bosh hqalarining faoliyatiga xalal bermay ishlashi kerak.

Ovoz tovush paychalarining hiqildoqda vujudga kelgan tebranishi natijasida paydo bo‘ladi. Bu yerda tovush hosil qilish bo‘yicha asosiy ish vujudga keladi, hiqildoq xonanda uchun muhim hisoblanadi.

Tovush hosil bo‘lishida talabaning tovush paychalari taranglashadi va hiqildoqning mushak tizimi bilan birlashib nafas oqimiga qarshi turadi. Muqim taranglik va tebranish jarayonidagi tovush paychalari elastik jipslashishi tovushni mustahkam, tayanchli qiladi. Fonatsiya jarayonida ikkita kuch – nafas chiqarish va tovush paychalarining taranglashishi bir-biriga qarshi kelishi va bir-birini yengmasligi lozim. Tovushlarning jo‘shqinligi, birinchi navbatda, paychalar va nafasning o‘zaro to‘g‘ri ta‘siri natijasida kelib chiqadi. Xonandalik tovushi tovush hujumidan ya‘ni xonandaning tovush paychalari va nafasning o‘zaro to‘g‘ri ta‘siri natijasida kelib chiqadi. Xonandalik tovushi tovush hujumidan ya‘ni xonandaning

tovush paychalari jipslangandan boshlanadi. Tovushning boshidan vokal jumlaning oxirigacha xonandaning nafasi tovushga o'zgarishadi. Yaxshi o'quvchining nafasi jumlaning oxirigacha yetadi, yomon talabanning nafasi esa yarmiga yetadi. Bu nafasni noto'g'ri taqsimlashdan ham, yetarli nafas ololmaslikdan ham emas agar xonandaning tovush paychalari yaxshi jipslashmasa nafas oqib ketishi aniq.

Nafasning taqsimlanishi tovush paychalarining to'g'ri tarangligiga bog'liq. Bu taranglikni topishda hujum asosiy rol o'ynaydi. Hujumda nafas ham, tovush paychalarining jipslashishi ham ta'sir ko'rsatadi. Har bir xonanda jo'shqin, yumshoq yoki havo bilan hujum qilishi mumkin, bundan kelib chiqib u yoki bu taranglikni yaratishi mumkin. Shuning uchun u talabanning diqqatini ko'proq jalb qilishi lozim.

Nafasni sarflash tovush paychalarining u yoki bu xarakteri vositasida boshqarilar ekan, tovush hosil qilishsiz o'rganilgan nafas kuylashdagi uzun nafasga kafolat bo'lmaydi. Bundan tashqari, tovushdan alohida o'rganilgan nafas ovoz apparatining ishiga xalal berishi mumkin. Kuylashda nafaqat ohista nafas chiqarish, balki tovush paychalari va nafas o'rtasidagi bog'liqlikni topish darkor. Tovush paychalari va hiqildoq nafasning haddan ziyod bosimi natijasida o'zining tayanchini yo'qotishi mumkin. O'xshash vaziyatlarda "uzilib" qolishi ham mumkin. Muntazam mashg'ulotlar davomida hiqildoqning turg'un holatini saqlash jarayonida xonanda nafasni ham takomillashtiradi.

Nafas va tovush hosil qilish o'rtasidagi bog'liqlikni, nafasni tovushdan alohida takomillashtirib buzish mumkin emas.

Malakasiz talabanning tovush hosil qilish jarayoni mushak faoliyati yetarli darajada farqlanmasligi bilan xarakterlanadi.

Musiqiy-ijrochilik masalalari (savodli va ifodali kuylash, matnni ongli talqin qilish) ustida ishlash

Musiqiy asarlar ustidagi mashg'ulotlarni ikkita yo'nalishga ajratish mumkin: – badiiy ijrosi ustida, texnik jihatidan, ya'ni mazkur asarni vokalizga qayta shakllantirish. Musiqiy asarni vokalizga, uning ayrim jumllarini mashqlarga aylantira olish lozim, shunda "ovoz sozlash" mashqlariga vaqt ketkazishga hojat qolmaydi. Bunga paralel ravishda asarning musiqiy- badiiy tomoni ham o'zlashtiriladi.

Muallifning har bir ko'rsatmasi o'zining ifodaviy texnikasiga ega. Kantilena yoki legatoga kuylash uchun vokal bo'g'inlar qanday birlashishi, ularning musiqiy jumlagacha yig'ilishini tushunib olish kerak. Vokal san'atining bu asosini xonanda ham cholg'uchilar kabi egallashi darkor. Avvalambor, xonanda o'zini "musiqiy cholg'u" sifatida his qilishi kerak.

Stanislavskiy: “So‘zlar, qalb tovushlarini kuchaytiruvchi vosita xolos” – der edi. Kantilena bor yo‘g‘i “Qalb ovozi kuchaytirishga” xizmat qiladi, ya‘ni ilhomlanib kuylashga majbur qiladi.

Vokalist legato, staccato, martellato, marcato usullarni o‘zlashtirib olishi kerak. Legato – vokal jummalarning bir-biriga ulab, tovush oqimini uzmay kuylashni: staccato – har bir vokal bo‘g‘inni qisqa, uzib-uzib kuylash: martellato – uzuq-yuluq, biroq staccatoga nisbatan uzunroq; marcato – tovushni keskin ifodalashni talab qiladi. Legato ham staccato ham kantilena va rechitativning turli shakllarini o‘zlashtirishi lozim.

Yuz turli mimik vazifalarni bajarishga, u yoki bu tuyg‘uni ifodalashga tayyor bo‘lishi kerak. Buning uchun yuz mushaklari ham erkin holatda bo‘lishi kerak. Vokal texnologiyasi kuylovchining yuzida ko‘rinmasligi darkor.

Kantilena – bu vokal pozitsiyasi. Uning jarangi kuychan va dinamik jihatdan shakllangan bo‘lishi kerak. Rechitativ kuylashni so‘zlash intonatsiyalariga yaqinlashtiradi. Uning ko‘p xillari bor: “quruq” rechitativdan (secco) kuychanligiga u “quruq” va legato rechitativlari orasida. Rechitativ vokal so‘zni so‘zlash ohangiga yaqinlashtiradi, chunki u nazmiy xarakterga ega. Kantilenada ruhiy kechinmalar, emotsiyalar kuchi namoyon bo‘ladi. Rechitativ kantilena susaytirgan syujet chizig‘ini yuzaga chiqaradi. Mazkur emotsional mazmunning qo‘yilishi va susayishini operada kuzatish mumkin.

Turli kompozitorlarning asarlarini ular yozilgan original tilda kuylash maqsadga muvofiq. Chet tillarida kuylash talabaga ona tilida kuylashga nisbatan yengilroq, tovush hosil qilish hamda ovoz yo‘naltirishni to‘g‘ri olib borishga yordam beradi.

O‘zbek kompozitorlarining saralari akademik qo‘shiqchilik talablariga bo‘ysungan holda, unli va undoshlar talaffuzidagi o‘ziga xos fonetik farqlarni hisobga olib kuylanadi, bu artikulyatsion bazaga ayrim o‘zgarishlarni kiritadi. Shu bilan bir qatorda, qochirimlar va milliy bo‘yoqlarni yumaloq tovush bilan uyg‘unlashtirish darkor.

Badiiy-pedagogik material ehtiyotkorlik bilan tanlanishi kerak. Materialni musiqiy vokal-texnik va ijrochilik qiyinchiliklarni tahlil qila olishda talaba oldidagi asosiy talabdir. Asarni sifatli ijro etishda uni o‘rganish va kuylab o‘tish uslubiyotini o‘zlashtirib olishi kerak, bu keng va turfa xil repertuarni tezroq o‘zlashtirishga ko‘mak beradi.

AMALIY QISM

O'ZBEKISTON – ABADIY BAHORIM

Rauf Tolib she'ri
N.Norxo'jayev musiqasi

Quvnoq ♩=139

The first system of the musical score is a piano introduction. It consists of two staves: a treble clef staff and a bass clef staff. The key signature is one sharp (F#), and the time signature is common time (C). The music features a steady, rhythmic accompaniment with chords and single notes in both hands.

ATAKA (ital.attaccare – hujum qilmoq, bog‘lanmoq, qo‘shilmoq) – 1) Vokal metodikasida ovoznining nafas olish holatidan - tovush hosil bo‘lishini bildiruvchi atama. U sof unilar tovush hosil qilishiga nisbatan qo‘llaniladi. Tovush A.ning uchta - qattiq, nafas olishdan keyingi va yumshoq turlari bo‘ladi. Qattiq A.tovush boshlangunga qadar ovoz paylarining zich birlashishi va ovoz paylari ostidagi bosimning ortishi ta’sirida tez ajralishi bilan ifodalanib, tovush balandlik jihatdan aniq, yorqin va harakatchan tarzda, bo‘rttirilganda esa dag‘al sadolanadi. Nafas olishdan keyingi A.da ovoz paylari chiqayotgan havo oqimi bilan to‘qnashadi va o‘ziga xos nafas tovushi hosil qiladi. Tovushning to‘liq sadolanishi va aniq balandligiga birdaniga erishilmaydi (qo‘shimcha tovushlar hosil bo‘ladi). Bu tur A. da havo chiqib ketishi mumkin, shu sababli ovoz kerakli tembr sofligi, aniqlik, quvvat, tayanch asosni yo‘qotadi. Yumshoq A. ovoz paylari va havoning o‘zaro to‘qnashuvining bir vaqtdaligi bilan ifodalanadi; intonatsiya sofligi va harakatdagi ovoz paylarining eng yaxshi imkoniyatlarini yaratadi. Xonandalar ko‘proq yumshoq A.ni qo‘llashga intilishadi. Pedagogik amaliyotda kuylanuvchi ovozlarni hosil qilishda A.ning har xil turlari qo‘llaniladi. 2) Musiqiy asarning b. qism yoki bo‘limiga to‘xtovsiz, jadal o‘tishni ifodalovchi belgi. Bunda dirijyor qo‘lini tushirmasdan navbatdagi qismni boshlaydi.

BARITON (yunon. barytonos – past ovoz) – 1) Tenor bilan bas oralig‘idagi erkak xonandalar ovozi, diapazoni – katta oktavadagi «lya»dan birinchi oktavadagi «lya»ga qadar. Odatda, B.lar lirik (ovoz yengilligi bilan tenorga yaqin) va dramatik (kengligi va kuchi basga yaqin) turlariga ajratilib, xor tarkibida birinchi baslar partiyasiga qo‘shiladi. 2) Kamonchali torli musiqa asbobi; XVIII–asrlarda keng tarqalgan. 3) Mundshtukli puflama musiqa cholg‘u asbobi.

BAS (ital. basso – pastki) – 1) Erkaklarning eng past ovozi; diapazoni katta oktavadagi «fa»dan birinchi oktavadagidagi «fa»ga qadar. Tessituraga ko‘ra yuqori va past turlari bor. Yuqorigisi kuychan B. (basso cantante, ba‘zan yorqin sadolanishi sababli baritonli B.)deb ataladi. Pastki va barcha markaziy chuqur tovushlarning kuchli sadolanishiga ega bo‘lgan eng past (basso profundo) B. diapozoni kontroktavadagi «lya»dan kichik oktava «lya»ga qadar, bularni – oktavachilar deb ham atashadi. 2) Xor va ansambldagi eng past partiya; diapazoni (oktavachilarsiz) katta oktavadagi «fa»dan birinchi oktavadagi «fa»ga qadar bo‘lgan baritonlar va baslardan tashkil topib, ko‘proq katta oktavadagi «sol» birinchi oktavadagi «re» (mi bemol) ishlatiladi. Oktavachilarni qo‘llash partiya diapazonini bir oktava quyiga kengaytiradi. B.partiya xorning asosi, fundamentidir, shu

sabab unga intonatsiyadagi o'ta turg'unlik va chuqur sadolanish o'rinli. Ayni paytda dinamik jihatdan sadolanish sofligini ta'minlovchi harakatchan, egiluvchan xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

3) Puflama mis musiqa asbobi. 4) Akkordning eng past tovushi.

BELKANTO (ital. belkanto – go'zal kuylash) – XVII–asrda Italiya xonandaligida yuzaga kelgan nafis kuylash uslubi. Zamonaviy ma'noda – hissiyotga boy, go'zal va ravon kuylash yo'llari. B. xonandan izchil kantilena, nuqsonsiz koloraturali tovush cho'ziqligi, dinamik va nozik tembr o'zgarishlariga boy ijroni talab etadi.

VIBRATO (ital. vibrato, lot. vibratio – tebranish) – kuylash jarayoni, torli va ayrim o'zga sozlar ijrochiligida tovushni to'lqinlantirish. Xor ijrosida V. tarzida kuylash, iliqlik, quyuluvchanlik baxsh etadi, undan foydalanmaslik esa tovushlarni shirasiz, ifodasiz qiladi.

VILLANYELLA (ital. villanella – qishloq qo'shig'i) – Italiyada XV–XVI a.da keng tarqalgan qo'shiq turi. Jonli, lirik yoki hazil mazmundagi uch ovozli V. yetakchi o'rin tutgan. Uyg'onish davri italyan va b. kompozitorlari kiplab namunalar yaratishgan.

VOKALIZ (frants. vocalize, lot. vocalis – unli tovush) – 1) So'zsiz, unli tovushlarda kuylash uslubi. Ko'proq yarim yopiq («niqobdor») «a» tovushi va yumilgan og'iz b–n ijro etiladi. Bunday uslubdan asosan vokal va xor asarlarlari (mas. M.Burxonovning jo'rsiz xorlari)da keng foydalaniladi. 2) Xor uchun V. uslubidagi asarlar (mas. Y.Ivanovning «Perelyotnie ptitsi»; Y.Falik V.zi, A.Pirumovning «Exo», G. Sviridovning A.Yurlov xotirasiga bag'ishlangan Kontserti, R.Vildanovning «Olovli yo'llar» kinofilmiga yozgan «Elegiyasi», I.Akbarovning «Xoral»i va b.).

VOKALIZASIYA – so'zsiz kuylash; odatda, unli tovushlar yoki biror bir so'zning ayrim bo'g'inlarini kuylanadi. Xor amaliyotida ashula aytishda, xorni sozlashda, asar o'rganilayotganda qo'llanadi. Xor asarlarida yordamchi ovoz, tag (fon), bezak va h.k. ko'rinishda kiproq uchraydi.

GENYERAL-BAS (lot. generalis – umumiy, bosh) – 1) Garmoniya fanining ilgarigi nomi. 2) «Basso – kontinuo» (ital. uzluksiz bas)ning aynan o'zi: garmoniyani ko'rsatuvchi partituradagi pastki ovoz, bunda har bir tovush ostidagi raqamlar bilan belgilanadi (raqamli bas). XVI–XVIII a.da g'arbiy Yevropa musiqasida klavishli musiqa asboblari (organ, klavesin) akkordlar intervalikasini raqamlar bilan belgilangan bas partiyasi.

DETONATSIYA (frants. De'tonner – noto'g'ri kuylamoq) – me'yordagi tovush balandligidan chekinish, noaniq kuylash. Ba'zan distonatsiya (ko'tarilish)dan farqli ravishda past tovushning pasayishi ham D. atamasi bilan belgilanadi. D.ning sabablari - noto'g'ri rivojlantirilgan musiqa eshitish qobiliyati, lad intilishlarini yomon sezish, ovoz o'zgarishi (mutatsiya) davrida ortiqcha kuylash, ovoz hosil qilish usulidagi nuqsonlar, muayyan betoblik, charchash, e'tiborsizlik, o'zini nazorat qila olmaslik, akustik sharoitlarning o'zgarishi va b.

DIAPAZON [yunon. dia pason (chordon) – hamma torlar aro] – ovoz, soz, yoinki, jamoa, xususan, xorning eng pastidan - eng balandigacha bo'lgan tovushlari hajmi. Har bir professional xonanda yoki xorning ovoz D. odatda kamida ikki oktavali bo'lishi shart. Havaskorlik xorlar D. bir yarim oktavadan oshmasligi mumkin. D. sezilarli darajada tug'ma hislatdir, biroq ovozni to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish usuli bilan uning tabiiy imkoniyatlarini yuqoriga ham, pastga ham kengaytirish mumkin. Erkaklar ovozi D.nini balandga kengaytirishda tovushni «niqoblash» usuliga tayaniladi, shu bilan birga ingichka (faltset) sadolar talqinadi. Xonanda o'zining tabiiy tembrni saqlab qolishiga intilish zarur.

DIKSIYA (lot. dictio – nutq talaffuzi) – kuylashda adabiy matnni to'g'ri (savodli va aniq) talaffuz qilish malakasi. Yaxshi D. – vokal, shuningdek, xor ijrosining muhim shartlaridan.

Xorda har bir xonandadan undoshlarni aniq talaffuz etishdan tashqari, barcha kuylovchilarning dirijyor ishorasi bilan erishiladigan artikulyatsiya jihatidan yakdilligi taqozo qilinadi.

DINAMIKA (yunon. dinamis – kuch) - tovushlarning sadolanish kuchi b-n bog‘liq bo‘lgan jarayon majmui. Musiqaning eng muhim ifoda vositalaridan biri. D. tuslar(forte, piano, cresc., diminuendo va b.)ni qo‘llash musiqaning mazmuni va badiiy mohiyatini teranlashtiradi. Xor asarlari asosan bir u yoki bu dinamik yo‘nalishda sadolanadi, shunga qaramasdan turlicha nyuanslar va kontrastli D. bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Dinamik ta’sirchanlik, dinamik tuslar, ularni mahorat bilan qo‘llash, ijro jarayonida to‘g‘ri taqsimlash, dirijyorlikning vazifalaridan biri bo‘lib, unda ijro madaniyati, mahorati qay darajada mavjudligini ko‘rsatadi.

DISKANT (lot.dis – bo‘lishni anglatgan old qo‘shimcha; cantus – kuylash) – 1) Bolalarning yuqori kuychan ovozi. Diapazoni birinchi oktavadagi «do»dan – ikkinchi oktava «sol»ga qadar. D. sadosi sofliqi, qo‘ng‘iroqday jarangdorligi bilan ajralib turadi. 2) Xor yoki vokal ansamblida bolalar yoki ayollarning baland ovozi b–n ijro etiladigan partiya. 3) O‘rta asrlar musiqasidagi ko‘p ovozli kuylash shakli, XII-a.da Frantsiyada paydo bo‘lgan. Nomini asosiy kuy majmui (grigoriancha xoral)ga qarama–qarshi harakatda jo‘r bo‘ladigan yuqori ovoz D.dan olgan. 4) Yakka ijro etiladigan yuqori ovoz – ukrain, belorus va Don kazaklari xalq qo‘shiqlarida jo‘rchi ovoz (diskant).

INTONASIYA (lot. intono – qattiq talaffuz etaman) – 1) Badiiy obrazning musiqa tovushlari orqali ifoda etish. 2) Uncha katta bo‘lmagan, nisbatan mustaqil kuychan ibora. 3) Musiqa ijrosida tovush balandligini aniq ifoda etish. 4) Musiqa asboblarining tovushqatoridagi tonlarni balandlik va tembr jihatdan aniq aks ettirish.

KANTOR (lot. cantor – erkak xonanda) - katolik cherkovida xonanda, sinagogada - bosh xonanda, protestantlarda – xor-dirijyori va o‘qituvchisi, organchi bo‘lib, uning majburiyatlariga cherkov uchun musiqa yaratish vazifasi ham kirar edi. I.S.Bax 1723-1750 yillarda Leyptsig shahridagi Muqaddas Foma cherkovining kantori bo‘lgan.

KANTUS FIRMUS (lot. Cantus firmus – o‘zgarmas kuy) – XV- XVI asrlarda polifonik musiqa namunalarida boshlovchi kuy bo‘lib, bir necha marta o‘zgarmasdan takrorlanadi. Xorda odatda tenor ovozig a yuklatiladi.

KANSONA (ital.canzona – ashula) – Uyg‘onish davrida keng tarqalgan ko‘povozli dunyoviy qo‘shiq janri. XI-XII asrlarda Provansal shoir-qo‘shiqchi,– trubadurlar ijodidagi shakl. XIII-XVII asrlarda Italiyada K. – ko‘povozli imitatsion-polifonik tuzilishdagi frotolla (italyancha ko‘p ovozli qo‘shiq)ga yaqin asar. Keyinchalik qo‘shiqsimon, kuychan cholg‘u asarlarni ham K.deb atashgan. Kantsonetta – uncha katta bo‘lmagan raqs xususiyatlariga ham ega K.

KOLORATURA (lot. coloro – bezayman) – tez ijro etiluvchi virtuoz passajlar va musiqa bezaklari. Qadimiy xor musiqasida va XVIII a. italyan operasida ko‘p qo‘llanilgan. K. shuningdek, ovozning harakatga layoqatliligini bildiradi (koloraturali soprano atamasi ham shundan kelib chiqqan). Har qanday xor ovozning (shuningdek basning ham) virtuoz darajadagi harakatchanligi xor tarkibi uchun maqsadga muvofiqdir, zero u yengil va aniq sadolanishni shakllantirishga yordam beradi.

KONTRALTO (ital. contralto) – 1)Eng pastki ayollarning ovozi, diapazoni kichik oktavadagi «fa»dan ikkinchi oktavadagi «fa» qadar. Zich va quyuq tembr bu ovozga xosdir. Kompozitorlar ko‘p operalarida erkak partiyalarini K. uchun yozganlar (M.Glinka «Ivan Susanin» operasidagi Vanya, Sh.Guno «Faust» operasida - Zibel partiyasi va b.). 2) Xorda – ikkinchi altlar partiyasi. Ba’zan tenorlar bilan unison tarzda, o‘ziga xos vokal buyog‘i sifatida qo‘llaniladi (A.Borodinning «Knyaz Igor» operasidagi sharqona xor va polovets. raqslari).

KONTSERT (lot. concerto – musobaqalashaman) – 1) Muayyan dastur bo‘yicha ijro etiladigan musiqiy asarlarning omma oldidagi ijrosi. Turlari: yakkaxon (solo), ansambl, simfonik, xor va h.k. 2) Yakkaxon yoki yakkanavoz va orkestr uchun yozilgan yirik shaklli, odatda virtuoz xarakteridagi musiqiy asar. 3) Yakkaxon ovozlar, xor, cholg‘u ansambl (ba‘zan organ) mutanosibligiga asoslangan polifonik vokal yoki vokal-cholg‘u musiqa shakli. K. Italiyada (XVI a.) vujudga kelgan. Rus cherkov musiqasida – a kapella xor uchun yaratilgan ko‘povozli kompozitsiyalar bo‘lib, bayramona marosimlar vaqtida ijro etilgan. Bunday K. shakli (XVII a. oxiridan) partesli xonish kiritilishi munosabati b -n rivojlana boshlagan: D.Bortnyanskiy, M.Berezovskiy, S.Degtyaryovlar ijodida, keyinchalik V.Salmanov, G.Sviridov, Yu.Falik, A.Shnitke va b.larning asarlari. Xor kontsertlari yoki uning tamoyillari o‘zbek kompozitorlaridan: M.Burhonov, B.Umidjonov, B.Lutfullaev va N.G‘iyosovlar ijodida uchraydi.

KUY, melodiya (yunon. melodia – kuylash, ashula) – musiqaning asosiy ifoda vositasi. Muayyan ohang, undan esa yaxlit kuy yaratish bir ovozli tovushlarning badiiy izchilligiga asoslanadi. Shu bois, an‘anaviy bastakorlik – ayni tovushlarni o‘zaro bog‘lash demakdir. Yevropa kompozitorlik ijodiyotida esa, tovush, interval, akkordlar tizimi, muayyan shakl muhim ahamiyatga ega. Vokal va xor musiqasida K. ijro etilayotganda ohang(intonatsiya)larni dinamik va agogik tuslarini mahorat bilan taqsimlash vositasida badiiy obrazni ochib berish, she‘riy va musiqiy matnlar mutanosibligini namoyon etish zarur.

KUYLASH, vokal san‘ati – musiqani ovoz bilan ijro qilish. Yakkaxon solo (bir ovozli), ansambl (duet, trio va h.k.), xor (sozlar jo‘rligida va jo‘rsiz – a kapella, she‘riy matnli va matnsiz (vokalizatsiya) kabi K. turlari bo‘lib, qo‘shiq, ashula, musiqali drama, operetta, opera, kantata, oratoriya, kamer–kontsert(romanslar), estrada, cherkov sohalarida namoyonlanadi. K.ning asosiy – kantilena (kuychan), koloratura (odatda tez sur‘atda musiqa bezaklari b-n amalga oshirish), deklamatsiyali (nutq ohangiga yaqinlashuvchi) kabi asosiy uslublari mavjud. Ommabop-havaskorona va professional K. yo‘llari bo‘lib, so‘nggisi ovoz apparatining maxsus mashqlari natijasida shakllanadi. Akademik usuldagi K. ovozi go‘zal tembri, unli tovushlarning jarangdorligi va hamohangliligi, keng diapazonlarning ravonligi, jadal rivojlantirish imkoniyatlari, «oquvchan» - to‘lqinsimon xususiyatlari bilan ajralib turadi.

KUYLASH KO‘RSATMASI – xonandaning kuylashdan avvalgi holatini ifodalovchi atama; ijrochining odatda tik turgan holda erkin (orqa va yelkari to‘g‘rilanib) nafas olishi, bosh va butun gavdasini to‘g‘ri tutishi, ikki oyog‘iga mahkam tayanishi, qo‘llari erkin holatda bo‘lishi kerak. O‘tirgan holatda gavda va bosh avvalgi holatini saqlaydi; oyoqlarni to‘g‘ri burchaklab qo‘ymog‘i lozim (ularni o‘ziga siqmog‘i yoki oyoqqa oyoq qo‘yishi mumkin emas, aks holda to‘g‘ri nafas olishga to‘sqinlik qiladi). To‘g‘ri qo‘yilgan K.k. nafas muskullarini faollashtiradi, tovush keskinligi va siqilgini bartaraf qilib, kuylash jarayonini yengillashtiradi.

KUYLASH TONUSI (lot. tonus – kuchlanish) – xonanda kuylash apparatining faol holati, uning ijroga tayyorligi. K.t.ni shakllantirish yo‘llari – o‘zlashtirilayotgan asarga qiziqish, kuylash xohishini hosil qilish, mashg‘ulot jarayonini yaxshi kayfiyatga yo‘naltirish va b.

METR (yunon. metron – o‘lchov, mezon) – musiqa asarida bir xil o‘lchovdagi kuchli va kuchsiz hissalarining almashuvi, musiqiy ritmni shakllantirish tizimi. M. ikki jihatdan – kuchli va kuchsiz damlardan tarkib topadi. Kuchli hissa o‘lchov urg‘usini hosil qiladi, uning yordamida musiqa asarini taktlarga taqsimlaydi. Taktda bitta kuchli hissa bo‘lgan oddiy (ikki, uch hissali), bir nechta oddiylardan tuzilgan murakkab (4, 6, 12 hissali), hamda bir necha turli oddiylardan tarkib topadigan aralash - murakkab (5,7 hissali va b.) M.lar bor. M.ni son bilan ifodalashda takt o‘lchovining ritm birliklari (sakkiztalik, chorak va h.k.) belgilaydi va nota yozuvida kalitidan keyin taalluqli raqamlarda ko‘rsatiladi. M.ni sezish va idrok qilish musiqa ijrosining (ayniqsa, butkul xor, orkestrda) zaruriy shartidir. M. dirijyorlik sxema(setka)sida aniq va ravshan ko‘rsatiladi.

MESSO-SOPRANO (ital. mezzo – o‘rta) – soprano va kontralto oralig‘idagi ayollar ovozi. Diapazoni kichik oktava «lya» dan ikkinchi oktavadagi «lya»-gacha. An’anaviy xorda odatda birinchi alt partiyasini hosil qiladi, uch ovozli ayollar xorida esa ikkinchi yoki uchinchi ovoz tarzida kiritiladi.

MIMIKA – inson his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi yuz muskullarining ifodali harakatlari. Ijroni yanada ta’sirli qilish uchun M. dirijyorga katta yordam beradi, zero qo‘l harakatlari b-n asar mazmunini to‘la ko‘rsatish imkoni yetarli emas. Dirijyor nazari, ko‘z, yuz M. lari ijro etiladigan musiqaga mos kelishi kerak.

MUTATSIYA (lot. mutatio – o‘zgarish) – balog‘atga yetish davrida bolalar ovozinig kattalar ovozig a o‘tishi. M.ning yosh chegaralari 10(12)-16(17) yosh. O‘g‘il bolalarda bo‘g‘iz va ovoz paylarining o‘sishi tufayli M. keskin ro‘y beradi. M. davomiyligi turlicha bo‘lib, bir necha haftadan to bir necha yil davomida sodir bo‘ladi. Qizlarda M. kam seziladi (odatda o‘g‘il bolalarnikiga o‘xshab intonatsiyaning aniqligida namoyon bo‘ladi), ularning ovozi kamroq o‘zgaradi.

NAFAS BELGISI (vergul, yoki «V» belgisi) – barcha vokal asarlar nota yozuvi(xor partitura, partiya)da nafas almashuvi belgisi. Shuningdek, musiqa iborasi ustiga qo‘yilgan liganing oxiri ham shunday belgi vazifasini bajaradi.

NAFAS, kuylash nafasi – kuylash jarayonining muhim qismi, ovoz hosil qilishning asosiy omillaridan, ovozning quvvat manbai. Kundalik hayotda N. olish tabiiy tarzda amalga oshadi, kuylashda esa muayyan iroda vositasiga tayaniladi. N. olish doimo ijrochi muskullarining faol harakatini talab etadi – qovurg‘alarni ko‘taruvchi va ko‘krak qafasini kengaytiruvchi diafragma dan foydalaniladi. N. olish turiga ko‘ra amaliyotda yuqori qovurg‘ali, pastqovurg‘aliv - diafragma li va diafragma li larga farqlanadi. Kuylashda bo‘yin muskullarini zo‘riqtirish sababli yuqori-qovurg‘ali N. qo‘llanilmaydi. Kuylash uchun pastqovurg‘ali – diafragma li N. eng qulay: N. olishda ko‘krak qafasining yuqori qismi tinch holatda bo‘ladi, pastki qovurg‘alar yaxshi harakatlanadi, diafragma pastga tushadi va qorin bir oz oldinga chiqadi. Kuylashda N. turlari emas, balki N. chiqarish xususiyati jiddiy ahamiyatga ega. N. chiqarish qorin muskullari va qovurg‘alarni tushiruvchi muskullar ta’sirida yuzaga keladi. N. chiqarish silliq, silkinish, ortiqcha zo‘riqishdan holi, ayni paytda asos (tayanch) hosil qilish uchun yetarli darajada faol bo‘lishi shart. N. to‘g‘riligini ifodalovchi asosiy mezon bu ovozning sadolanishi sifatidir. N. xususiyati, uning uzunligi va hajmi musiqa iborasi va ifodali moslamalariga bog‘liq. Odatda, N. olish tez, tovushsiz bir vaqtning o‘zida burun va og‘iz orqali amalga oshadi. Musiqa yo‘l bersa, N. burun orqali olingani ma’qul. Xor xonandasining N. imkoniyati va xususiyatini dirijyor ishorasi ko‘rsatadi. Xor kuylashda baravar N. bilan birga zanjirli (ulama) N. ham qo‘llaniladi. Kuylaganlarga to‘g‘ri N. olishni o‘rgatish – vokal-xor ishida eng muhim jarayon hisoblanadi.

NYUANS (frants. nuance –tus) – sado tusi, uning dinamik (*f, r, ff, rr, mf, mr* va h.k.) hamda muayyan tusi xususiyatining belgilari mavjud. Bular italyan cha ta’kidlanib, mas., dolce – mayin, expressivo – ifodali va h.k. turlarini qo‘llash musiqiy shakl, aniq va ravshan ifoda, asar uslubi va ijrochining o‘ziga xosligiga bog‘liq. Xor ijrochiligida eng qiyin N. fortissimo bo‘lib, u ba’zan zahira (faltset) ovoz bilan ijro etiladi, chunki bunda tovushning zo‘riqish xavfi bor, shuningdek tovush eshitish qobiliyati va tuzilishining ayrim zaiflashishi natijasida umumansambl N.ni yaratish birmuncha qiyin. Mas., rianissimo – aniq eshitiladigan bo‘lishi shart. Harakatchan N.da odatda ularning tadrijiyligiga rioya qilish va umumansambl sadosini saqlash zarur.

OBERTONLAR (nem. Obertöne, ober – yuqori, töne – tovush so‘zidan) – ohangdosh tovushlar, asosiy tovushdan odatda yuqorida akslanuvchi sadolar; ularga binoan tovushlar balandligi

aniqlanadi. Tovush manbai (tor, havo ustuni, ovoz qatlamlari) o'zining barcha uzunligi va massasidan tashqari ayrim qismlari bilan ham tebranadi. Tovush manbaining tebranishi natijasida paydo bo'lgan tebranish chastotasi, asosiy ton tovush balandligini belgilaydi. Natijada mayda tebranishlardan sadolanish – tembr ohangiga ta'sir etuvchi O. paydo bo'ladi. O.ning garmonik va garmonik bo'lmagan turlari bor. Garmonik O.da asosiy tonda tezligi 2, 3, 4 va h.k. baland bo'lgan tovush qatori hosil qilinsa, garmonik bo'lmagan O. boshqa qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ovoz apparatida ham, puflama sozlarda bo'lgani kabi, tovush tembr rezonatorlarga bog'liq. O.ning tovush tembrini hosil qilish xossasi musiqiy ijrochilik amaliyotida keng qo'llanadi. Xonandada ovoz chiqaruvchi oraliqda hosil bo'ladigan u yoki bu O. to'plami ovoz qatlamlarining birikish zichligi, ularning taranglashish darajasi, tebranishga u yoki bu muskullar massasining ulashidan bog'liq.

OVOZ – 1) Ovoz apparati tomonidan talqin etiladigan tovushlar; odamlarning o'zaro muloqotiga xizmat qiladi. O. nutqiy, kuylash, xonish tarzida bo'lishi mumkin. 2) Garmonik yoki polifonik xor musiqasida har bir kuychan yo'nalish (chiziq). 3) Xor, ansambl, orkestrdagi alohida partiya. 4) Xor va orkestr partiturasidagi alohida partiya – O.lar.

OVOZ APPARATI – ovoz va nutq tovushlarini hosil qiladigan organlar tuzilmasi, unga: 1) ovoz pardalari (to'qimalari) ostida havo bosimini hosil qiluvchi nafas organlari, tovush sadolari manbai; 2) tovush tebranishlarini hosil qiluvchi ovoz pardalarini o'z ichiga olgan halqum-hiqildoq to'qimasi; 3) aniq nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz apparati; 4) ayrim musiqa tovushlarni hosil qiluvchi burun (va b. organlar) bo'shliqlari kiradi. O.a. bosh miya qobig'ining tegishli bilimlarida hosil bo'ladigan tovush tasavvur etishiga javoban, hamisha o'zining barcha qismlari bilan o'zaro aloqada ishlaydi.

OVOZ GIGIYENASI – ovoz apparati sog'lomligini saqlashda xonandaning ma'lum axloq qoidalariga rioya qilishi. Ovoz apparatiga beriladigan yuk uning malakalik darajasiga mos bo'lishi kerak. Ushbu ovozga tessitura mos bo'lmagan, tanaffussiz uzoq kuylash, yuqori notalarni suiiste'mol qilish, zo'riqishlarga yo'l qo'yilmaydi. O.g. hayotiy tartib va umumiy gigiena qoidalari bilan bevosita bog'liq. Xonandaning o'ziga xos xususiyatlarini bilgan foniatr tomonidan uning ovoz apparati sog'lomligi davriy kuzatib borilishi muhimdir.

OVOZ YO'NALISHI – 1) Ko'p ovozli asardagi har bir ovoz harakati. 2) Harakatdagi bir necha ovozlarning o'zaro munosabati. Turli – to'g'ri (bir yo'nalishdagi harakat), parallel (bir xil atalgan intervallar harakati), qiya (ovozlardan biri o'rnida qoladi), qarama – qarshi O.y.larining farqlanishi shundan. Polifonik bayonida O.y. mustaqil va teng huquqli bo'lib, gomofonli – garmonikda kiproq bosh ovozga bo'ysundirilgandir. O.y.ning qulayligi xor kuylashda, ayniqsa, uni sozlashda katta ahamiyatga ega. Bunda ovoz ohangining lad aniqligi va uning kuylash qobiliyati (tessitura qulayligi, mayinlik, sakrashlar tayyorligi, matnni mohirona qo'llash) muhimdir.

OVOZ TOVUSHI NUQSONLARI – kuylashdagi tovush nuqsonlari: halqumli ovoz, «ochiq» («oq» tovush) ovoz, tovushni jadallashtirish, sozdan chiqish, manqalik, burunli sado, ovozni tebratish yoki tremolyatsiya, jamlanmagan, tayanchsiz tovush. Barcha nuqsonlar, qoidaga ko'ra, orttirilgandir. Bular paydo bo'lishning asosiy sabablari mustaqil mashg'ulotlar va noto'g'ri o'qish natijasida paydo bo'lgan noto'g'ri kuylash malakasidir.

REZONATORLAR (lot. resono – aks-sado) – ovoz paylarida hosil bo'ladigan zaif tovushlarga kuch, jarangdorlik, o'ziga xos tembr beradigan ovoz apparati (to'qimalari) majmui. R. yuqorigi (bosh) va pastki (ko'krak) qismlardan iborat. Bo'g'izdan yuqorida joylashgan bo'shliq – qattiq tanglay, tishlar, burun bo'shlig'i, peshona, yuz suyaklari – bosh R. Bo'g'izdan pastda joylashgan bo'shliq – ko'krak qafasida to'plangan (traxeya, bronxlar) ko'krak R.larni hosil qiladi. Bundan tashqari R. harakatchan (shaklini, hajmini o'zgartiradigan, bo'g'iz va og'iz bo'shliqlari –

boshqaruvga boy bergan) va harakatsiz (burun va qo‘shimcha bo‘shliqlar, traxeya, bronxlar)larga bo‘linadi. Har bir xonanda R. faoliyatini tabiiy sezgilar bilan nazorat qilib, o‘zida tekshirib ko‘rishi mumkin. Bosh R.larni to‘g‘ri qo‘llaganda qansharga tegilgan chog‘da boshning R. qismi tebranishlari seziladi. Ko‘krak R.ni to‘g‘ri qo‘llaganda ko‘krak qismi tebranadi – buni qo‘lni ko‘krak qafasi ustiga qo‘yib sezish mumkin. R.dan foydalanishning to‘g‘riligini aniqlovchi eng to‘g‘ri mezon kuylash paytidagi xonandaning shaxsiy eshitish nazoratidir. Bosh R. asosan baland tovushlar uchun, ko‘krak R. esa pastki tovushlar uchun belgilanganligini bilish lozim.

REPERTUAR (lot.repertorium, fr.repertoire – ro‘yxat) – turli kontsertlarda ijro etiladigan yoki musiqiy ta‘lim jarayonida o‘rganiladigan asarlar majmui. Tug‘ri tanlangan R. – har bir ijrochi, ansambl, orkestr, xususan xor jamoasining muvaffaqiyatli faoliyatida o‘ta muhimdir. R. – badiiy jihatdan barkamol, xorning yo‘nalishiga mos, rang-barang va qiziqarli bo‘lishi, pedagogik jihatdan esa mantiqan o‘rinli tuzilishi kerak.

REPETITSIYA (lot.repetitio – takrorlash) – mashg‘ulot, tayyorgarlik, kontsert programmasi yoinki spektaklni tayyorlashda dirijyor (shuningdek, rejissyor va b.) ning ijrochilar bilan o‘tkazadigan tayyorlov mashg‘ulotlari. Xonandalar yoki xor ishtrokidagi R., shuningdek umumiy xor mashqi (spevka) deb ataladi. R. – asar mazmuni bilan belgilanadigan ijro g‘oyasini asta–sekin mujassamlashtiruvchi an‘anaga aylangan jarayon. R.lar asarning murakkablik darajasi, muayyan xor uchun qo‘yiladigan talabga muvofiqligiga ko‘ra, dastlab partiyalar, so‘ngra guruhlar va butkul jamoa b-n o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Yakuniy R. – general (hal qiluvchi) R. deb ataladi.

RECHITATIV (it. recitare – ovoz chiqarib o‘qish, deklamatsiya qilmoq) – vokal musiqa turi, intonatsiya va ritm jihatidan oddiy yoki deklamatsiyali bo‘lib, so‘zlarni qisqa, odatda nutqiy ohanglar talqin etadi. R. ritm jihatidan erkin holda yozilib, muayyan musiqiy tuzilmalari (ibora, jumla, davriya va b.)ga deyarli bo‘ysunmaydi. Yakkaxonlikdan tashqari, xor musiqasida, opera sahnalarida ham qo‘llanadi. R. bilan bir qatorda, unga yaqin tovush balandliklarida, ritmlarga asoslangan «nutqiy kuylash» deya nomlangan badiiy o‘qish (melodeklamatsiya) va nutqiy deklamatsiya turlari ham ishlatiladi.

RITM (yunon. rhytmos – moslik, bir tekis oqim) –tovushlarning uzun-qisqaliklari va urg‘ularning almashib kelishiga asoslangan musiqiy tushuncha. Har bir musiqa asari o‘z R.iga ega bo‘ladi; R.ning o‘lchovi va idrok etish vositasi metrdir. R.kuy bilan bir qatorda musiqaning ifoda va shakllantiruvchi asosiy tamoyillaridan biridir. R.ning ta‘sirchanligi turli xil harakatlarga bog‘liq. R. va metr kuyning janr xususiyatlarini ham belgilashi mumkin, ular orasidagi musiqa tovushlarining vaqtinchalik shakllanishning qonuniyligini ko‘rsatuvchi o‘zaro chambarchas bog‘liqlik metroritm deb ataladi. Ijroning metroritmik tomoni dirijyor ishorasining aniqligiga bog‘liq. Bunda ishora va kuylash orasida to‘liq ritmik uyg‘unlik bo‘lishi shart.

SOPRANO (ital. sopra – yuqori, baland) – 1) Diapazoni birinchi oktava «do»dan uchinchi oktava «do»gacha bo‘lgan ayollarning eng baland ovozi. S.turlari: koloraturali S. – uchinchi oktavadagi «do» va undan ham yuqori ko‘tarila oladigan yaxshi rivojlangan baland registrli va kam sadolanuvchi past registrli ovoz, yorqin o‘zigagina xos tembri bois, xorda deyarli foydalanilmaydi; lirik–koloraturali S. – rivojlangan yuqori va o‘rta registrda quyuq sadolanuvchi, lirik S. – yengil yuqori registr va tekis o‘rtasiga ega, xorda S. partiyalarini 1- va 2 - ovozlarga bo‘linganda C I partiyasini ijro etishadi; lirik– dramatik S. – kuchli baland registri, yaxshi rivojlangan o‘rtasi va jarangdor pastki registri bilan ajralib turadi; xor uchun eng kerakli ovoz va bo‘linganida ham 1- ham 2- S guruhiga mansub bo‘lishi mumkin; dramatik S. – jarangdor kuchli baland registri, tekis o‘rtasi va to‘liq jarangdor pastki registri bilan ta‘riflanadi, xorda 2- S partiyasini ijro etadi. S.ning ishchi diapazoni birinchi oktavadagi «mi» bemol–«mi», «si» bemol ikkinchi oktavagacha, o‘tish notalari birinchi oktavadagi mi–fa va ikkinchi oktavadagi fa–fa diez.

2) Baland bolalar ovozi (diskant). 3) Xordagi eng baland partiya. 4) Garmoniya o‘quv kursida yuqori ovoz nomi.

TEMBR (frants. timbre – tamg‘a, ajratish belgisi) – tovush tusi, turli cholg‘u asboblari yoki turli ovozlarda ijro etilgan bir xil balandlikdagi tovushlarni farqlash imkonini beruvchi sifat. T. tovush tarkibiga kiruvchi ovozda 2500 gerts (yuqori tonlar, aks– sadolar)dan yuqori tebranishli baland obertonlar miqdoriga bog‘liq. Bu baland obertonlar guruhi «baland kuychan formanta» deb nomlangan. Kuychan formanta (sadoda) qanchalik kuchli ifodalansa, tovushning jaranglashi, yengilligi va «kumush»simon T. shunchalik katta bo‘ladi. T.ning go‘zalligi va ta’sirchanligi ovozda tabiiy sadoga mayinlik va quyuqlik baxsh etuvchi past kuychan formantalar (300–600 gts)ning miqdoriga ham bog‘liq. Tovushni idrok qilishga, shuningdek vibrato (lot. Titrash so‘zidan, ton baladligidagi sekundiga 5–7 tebranishli kichik tebranishlar) ham ta’sir etadi. Ayni shu tebranish eshitish uchun yoqimli, undan ancha kamlari chayqalish, undan tezlari – tremolyatsiya (ovozda «mavjlar») kabi qabul qilinadi. Go‘zal T. ovozning qimmatli xususiyati bo‘lib, u har bir ibora, jumla va butkul ohangni to‘g‘ri idroklanishiga ta’sir etadi. Betayin T.da ohang sof emasdek tuyuladi. Ovoz T.i mimika b–n bog‘liq – asarning jozibali ijrosi, ijroga munosabat xonanda mimikasi va kelib chiqqan holda tovush tusida ham o‘z aksini topadi. T. tabiiy sifat bo‘lib, ta’lim jarayonida yaxshilanishi ham mumkin.

TENOR (lot. tenore – ushlamoq) – 1) Baland erkak ovozi; diapazoni kichik oktava «do»dan - ikkinchi oktava «do»gacha; «o‘tkinchi» registrli notalar (ko‘krak va bosh registrlar oralig‘i) birinchi oktavadagi «fa» – «fa» diez. Xor partituralarida T. partiyasi skripka kaliti (haqiqiy sadoga nisbatan bir oktava yuqori), bas va T. kalitlarida yoziladi. T. partiyalarining turlari: lirik, dramatik, lirik–dramatik, T.–altino. Lirik T. sadosi- yuqori registrda yengil, o‘rtasida mayin va pastida bir muncha kuchsiz. Dramatik T. yuqori registrda juda kuchli, shuningdek, jarangdor, yorqin pastki registrga ega. Lirik–dramatik T. har ikkala sifatlarga ega bo‘lgan turidir. T.–altino – kamyob ovoz bo‘lib alohida kuchga ega emas, biroq o‘ziga xos tembri xorning baland registrdagi barcha partiyalariga yengil va mayin sado baxsh etadi. Xorni partiyalarga bo‘lishda T.–altino va lirik–1-i T.lar, qolganlari – 2- T. Yuqori tessitura T.lar faltset va mikstlarni uddalay olishi muhim. 2) O‘rta asrlar ko‘p ovoqli musiqasida muayyan partiyani nomi bo‘lib, yetakchi kuy (cantus firmus)ni birnecha bor o‘zgarmagan holdagi ijrosi unga yuklatilgan.

TESSITURA (ital. tessitura – to‘qima) – har qanday cholg‘u yoki xonanda ovozining diapazoniga nisbatan kuy tovushlarni balandlik holati. T. past, o‘rta va baland bo‘ladi, shunga qarab, T.qulay va noqulay deyiladi. Kuylash uchun eng qulayi – o‘rta T., undan foydalana bilish ijrodagi ifoda vositalaridan biri.

TOVUSH BALANDLIGI – musiqa tovushiga xos xususiyat; tovush manbai (torlar, havo ustuni, ovoz paylari)ning tebranish tezligiga bog‘liq. Akustikada gerts (bir sekunddagi tebranishlar soni) bilan o‘lchanadi. Ma’lum tebranishlarga mos keladigan absolyut (mas., birinchi–oktavada «lya» - 440 gerts, kamerton balandligi namunasi bo‘yicha) va tovush intervallaridan kelib chiqib aniqlanadigan nisbiy tovush balandligi farqlanadi. Tovush balandligini idrok qilish doiraviy xususiyatga ega, ya’ni har bir tovush ma’lum tebranish doirasida belgilangan o‘lchov (chastota)laridan kichik (1/8 tongacha) chekinishlarda o‘zgarmas kabi turlari odat tusini olgan.

TOVUSH YO‘NALISHI – vokal san’atida kuy tovushlari, mas., kantilena, portamento, markato va b. tarzlarda sadolanishi bois, ovoz yo‘nalish turlarini belgilash uchun qo‘llanadigan atama. Kantilena – kuylashning eng asosiy T.y.dir. Ovoz hosil qilish b-n birga T.y.vokal usuli tushunchasi tarkibiga ham kiradi. Xor ijrochiligi turlicha vokal shtrixlari qo‘llanilib, musiqa xususiyati va uning bayoni tuzilishiga bog‘liq bo‘lgan T.y. usullari muhim o‘rin tutadi. T.y.ning uch asosiy usuli mavjud: legato- o‘zaro bog‘lab, ravon, staccato – qisqa- qisqa va non legato – aynan,

bog‘lamay, ravonsiz. Barcha T.y. usullari xonandalarning nafasidan to‘g‘ri foydalana olish qobiliyatiga ega.

TOVUSH KUCHAYTIRISH (forsirovanie) (frants. force – kuch) – ovoz apparatini haddan ziyod kuchli, urg‘ulashtirib kuylash. Oqibatda ovozning tembr sifatini, sadolanishi tabiiyligi buziladi. Xorda ham tovushni kuchaytirib kuylash ansambl va soz sifati buzadi. T.k. ovoz paylaridagi katta havo bosimi, yuqori tovushlarni «himoya»lamasdan ijro etishdan yuzaga keladi. Dirijyor xonandalarga ovozni ma’lum «zahira» (hatto fortissimoda ham) bilan kuylashlarini eslatib turishi zarur.

TOVUSHNI PARDALASH (niqoblash) – kuylanadigan tovushga ayrim xiralashgan tembr, mayinlik, shu orqali teranlik baxsh etuvchi tushuncha. T.p.ning asosiy qoidalari: diapazon markazida tovushning mayinligi, o‘tkinchi notalar ijrosida ovozni «dumaloq»lash, tovushni o‘rtacha kuch b-n va nafasni tekis chiqarish T.p.da og‘iz bo‘shlig‘ining orqa tomonida hosil qilinadigan yengil «esnash» holatidan foydalaniladi. Bunda hiqildoq kengayadi va erkin holatga keltiriladi, yumshoq tanglay bir oz ko‘tarilib, «gumbaz» shaklini oladi, natijada ovoz erkin va jarangdor bo‘ladi. Akademik kuylashda faqat pardalangan «niqobdor» tovushlardan foydalaniladi (ochiq tovush istisno tarzida, maxsus ijrochilik maqsadlarda qo‘llaniladi). Ammo tovushni haddan tashqari «niqobdor» qilmaslik kerak, zero ovoz tembri jarangsiz, xira bo‘lib qolishi mumkin. T.p. me‘yorini pedagog, dirijyor o‘zining ichki eshitish qobiliyati va estetik didiga ko‘ra aniqlaydi.

TOVUSHNI UZISH (dirijyorlikda) – maxsus dirijyorlik ishorasi yordamida sadolash (bir ovoz, guruh, barcha ansambl)ni tugatish. T.u. aniqlik, birdan (bir vaqtda yuz berishligi), ijro etiladigan asar xususiyatiga mos kelishi kabi talablar qo‘yiladi. Odatda, auftakt harakati bilan bajariladi, shu orada uzish «nuqta»si juda muhim bo‘lib, u aniq, ravshan ko‘rinadigan bo‘lishi kerak. Uzish ishorasi xilma–xil, u ijro etilayotgan musiqa tabiati, dinamikasi, dirijyorning individualligiga va h.k.ga bog‘liq.

UNLI TOVUSHLAR – ovoz bilan ma’lum ohanglarda talaffuz qilinadigan tovushlar. Ulardan ovozning barcha kuylash imkoniyatlari (tembr go‘zalligi, sadolanishning davomiyligi, kuch manbai, diapazon) namoyon bo‘ladi. Rus tilida oltita asosiy U.t.: a, o, u, e, i, i, o‘zbek tilida esa o‘ bilan yettita va y xarfi qo‘shilib: ye, yo, yu, ya, yi yolashgan tovushlar yuzaga keladi. Akademik usuldagi kuylashda U.t. nutq bilan qiyoslaganda ancha ravon yangraydi, bu esa kerakli jarangdor ohangga ega bo‘ladi va ashulaga quyuluvchanlik baxsh etadi. Yaxshi «qo‘yilgan» ovozda bu sifatlar mavjud.. Xorda xonandalardan U.t bir xil sof va to‘g‘ri talaffuz qilishni doim talab qilish, bu tovushlar ansamblga erishishga asosiy zamin yaratadi.

UNLI TOVUSHLARNI «YUMALOQLASH»– akademik usulda kuylanganda unli tovushlarning birmuncha yumaloq, niqobdor yangratish. Unlilar: a-o unsuri, ye-e unsuri, i-i unsuri bilan jaranglaydi.

FALSET (ital. falcetto, falso – soxta so‘zidan) – fistula, ya’ni o‘ta baland tovushlarni shakllantirish usuli, shuningdek, erkaklar ovozining eng yuqori registri; kuchsiz jaranglashi va tembr (obertonlar miqdorini kamayishi oqibatida) nafis(ingichka)ligi bilan ajralib turadi. F.ni shakllantirishda bosh rezonatoridan foydalaniladi; ovoz pardalarining barcha majmui bilan emas, balki faqat chetlari bilan tebratiladi. Tabiiy F. xor ijrochiligida yuqori notalarni o‘zlashtirishda; rrd, umumiy tonni berish va b.da qo‘llanadi. Ayrim tenorlar yuqori notalarni ijro etayotganda mikstga yaqinlashadigan baland ovozli F.dan foydalanishadi. F.dan o‘rinli foydalanish xonandalar uchun ham dirijyor uchun ham muhimdir.

FILIROVKA, filirovanie (fr.filerunson - tovushni cho‘zish) – tovush kuchini o‘zgartirish, Forte-Pianodan yoki aksincha cho‘zilayotgan tovush dinamikasini ravon o‘zgartirish mahorati. F.

tarzida kuylash nafasni to'g'ri egallashga bog'liq. F. malakasining mavjudligi tovush chiqarishning to'g'riligi va tabiiyligi ko'rsatkichidir.

FONASIYA, TOVUSH HOSIL QILISHI (yunon. phone – tovush so'zidan) –kuylash va oddiy nutqda ovoz tovushini chiqarish; ovoz apparati harakati mahsuli. Kuylashda tovush ovoz paylari tebranishidan hosil bo'lib, rezonator vositasida kuchayadi va tembri boyitiladi. Mioelastik nazariyasi (Garsiya, Myuller, Muzexold, Levidov)ga ko'ra ovoz paylarining tebranish tezligi va kelgusi tovush balandligi ularning tortilish darajasi va olinayotgan havo kuchi bilan tartibga solinadi. F.da ovoz apparatining barcha tarkibiy qismlari ishtirok etadi. Kuylash jarayonida markaziy nerv sistemasi muhim o'rin tutadi. Buni ashula o'qituvchisi, xor rahbari hisobga olib, mashg'ulotlarda ijobiy tuyg'ularni qo'llagan holda ijodiy muhitni yaratishi lozim.

FONIATRIYA (yunon. phone – tovush, iatreia – davolash) – tibbiyot bo'limi, ovoz hosil qilish fiziologiyasi, ovoz apparati kasalliklari va ularni davolash bilan shug'ullanadi. Shu bois, vrach-otolaringolog foniatr deb ataladi.

FRAZIROVKA (frazalash) – musiqiy asar ijrosida ayrim ibora, jummalarni aniq va ma'noli etib ko'rsatish, ifodalash. Nota yozuvida F. ligalar yordamida belgilanadi; F.lar orasidagi chegaralar tsezura deb ataladi. F.ning muhim vositalari – artikulyatsiya, dinamika. Vokal yoki xor asari ijrosida F. ham musiqiy, ham adabiy matnga bog'liq bo'lib, ifodalilikning muhim vositasidir.

XONANDA OVOZI – ovoz apparati vositasida chiqadigan ashula tovushlari majmui. X.o. balandligi, diapazoni, kuchi, tembri bilan ajralib turadi. X.o. balandligi uning tasnifi asosini tashkil qiladi. Ovoz va u bilan bog'liq bo'lgan musiqa eshitish qobiliyatini rivojlantirishda xor kuylash eng yaxshi vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jabborov. A. «O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari». T.
2. Jabborov. A. «Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida» T. 2000.
3. G‘ofurbekov. T.B «Saylanma» T.
4. O‘zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi T. 1997 .
5. Muhammad Axmedov «Hoji Abdulaziz Abdurasulov» T.
6. I.Akbarov «Musiqalug‘ati» Toshkent 1987 .
7. Karimov I.A. “Istiqlol va mahnaviyat”. - T.: “O‘zbekiston”, 1994
8. Karimov I.A. “Yuksak mahnaviyat – yengilmas kuch”. -T.: “O‘zbekiston”, 2008
9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017
10. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qathiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi mahruza. 14 yanvar, T., 2017.
11. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. T., 2016.
12. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi (2016 yil 7 dekabr).
13. Конен В. Пути американской музыки. М., 1984.
14. Овчинников Е. История джаза. Вкп. 1. М., Музыка, 1994.
15. Коллиэр Дж. Становление джаза. М.: Радуга, 1984
16. Способин И. Музыкальная форма. –М.:, 1972.
17. Дмитриев Л. Основы вокальной методики. М., 1969
18. Клип О. Постановка голоса эстрадного певца. М., 2003
19. A.Mansurov. Yosh estrada ijrochisiga. T – 2003
20. Amanullayeva D. “Estrada xonandaligi” OTM uchun o‘quv qo‘llanma, T.,2007;
21. Amanullayeva D. “Estrada va jaz vokalizlari” OTM uchun o‘quv qo‘llanma, T., “Musiqalug‘ati” 2014;

22. Amanullayeva D. “Estrada xonandaligi” magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, T., «Musiq» 2015;
23. Amanullayeva D. “Estrada xonandaligi” magistratura 1- kursi uchun o‘quv qo‘llanma, T., «Musiq» 2016;
24. Turaev Y., Amanullaeva D. “Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati” - o‘quv-uslubiy qo‘llanma, T., ”Musiq» 2008
25. Тураев Ю., Амануллаева Д. Вопрос методики преподавания эстрадного пения в консерватории. Т., “Музыка” – 2004.
26. G.Muxamedova. Xonandalik uslubiyati asoslari., T., 2007 y.
27. Amanullaeva D., Amanova N. “История джаза и эстрадной музыки”- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;

MUNDARIJA

KIRISH	4
Ma'lum bir ovoz turi uchun xonandalik mashqlari ustida ishlash	5
Dastur tanlash	5
Ijrochilik ko'nikmalari uchun vokalizlarni kuylash, tovush hujumi, diafragmaning faolligi, to'g'ri qo'shiqchilik tovushi, qo'shiqchilik nafasini mustahkamlash	7
XVII – XVIII asrlar boshidagi murakkab	8
bo'lmagan asarlar ustida ishlash	8
Yuqori pozitsiyadagi tovush, tayanch hissi ustida ishlash	8
Registrlarni tekislash ustida ishlash	8
Kekirdakning erkin holati	8
Tovush kamchiliklarini bartaraf qilish (burun tovushi, tomoq tovushi, tremolatsiya va boshqalar)	12
Diapazon o'rta qismidagi to'g'ri qo'shiqchilik tovushi	12
Asarlarda diksiya va to'g'ri artikulyatsiya ustida ishlash	15
Nafasni jummalarga to'g'ri taqsimlash	15
Musiqiy-ijrochilik masalalari (savodli va ifodali kuylash, matnni ongli talqin qilish) ustida ishlash	18
AMALIY QISM	20
O'ZBEKISTON – ABADIY BAHORIM	20
VATAN	22
HAYOT QO'SHIG'I	24
ULUG'IMSAN, VATANIM	27
KO'CHALAR	35
YUR MUHABBAT, KETDIK BU YERDAN	38
HAYOT QO'SHIG'I	41
UNUTMA MENI	48
SOG'INDI JON	51
NASTARIN	56
SENI OSMONIMGA OLIB KETAMAN	57
SEN BO'LMASANG YONIMDA	58
Я ЛЮБЛЮ ТЕБЯ ДО СЛЁЗ	61
НЕЖНОСТЬ	65
ВЕРНИ МНЕ МУЗЫКУ	356
ЛЮБОВЬ, ПОХОЖАЯ НА СОН	360
FROM SOUVENIRS TO SOUVENIRS	363
JE T'AIME	366
MENI ESLAGIL	482
OLAMDA GULLAR YASHAR	486
ODAMLAR AVAYLANG BIR-BIRINGIZNI	492
MUHABBAT	497
QAYDASAN	502
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	517

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

ALAYEVA ZARNIGOR MAXMUDOVNA

VOKAL VA ZAMONAVIY MUSIQA

Muharrir: H.Qahhorov
Texnik muharrir: D.Xudoyberdiyev
Musahhih: Sh.Shodiyev
Sahifalovchi: X.Axrоров

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Original maketidan bosishga ruxsat etildi: 26.12.2022. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 7,75. Adadi 100. Buyurtma № 7



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri
Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARA HAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy.